

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI
IV KURS 403 - GURUH TALABASI

Qo'shmurodbekova Shohsanam Botirjon qizinig
BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

Tilda emotsionol-ekspressivlikning ifodalanishi

MAVZUSIDA YOZGAN
BITIRUV – MALAKAVIY ISHI



NAMANGAN - 2017

Mundarija

So'zboshi-----	3 bet
I bob.-----	-8 bet
1.1. Ekspressiv-emotsional nutq formasi haqida.-----	8 bet
1.2. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.-----	13 bet
II bob.-----	23 bet
2.1.Leksik-frazeologik usul bilan ekspressiv-intensivlikning ifodalanishi-----	23 bet
2.2 . So'z ma'nosining ko'chirish usuli bilan ekspressiv-intensivlikning ifodalanishi-----	--30 bet
III bob.-----	45 bet
3.1. Okkozional so'zlar orqali voqea-hodisani orginal ifodalash-----	45 bet
3.2 . Poetik nutqda obrazlilik-----	47 bet
3.3 Frazelogizmlarning tilda ekspressivlik-emotsionallik ifodalashi-----	52 bet
Umumiy xulosalar.-----	54 bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.-----	56 bet

So`zboshi

XX asr boshlarida milliy uygʻonish davri boshlangan edi. Asr so`ngiga kelib esa mustaqillik chechaklari ochildi. Mustaqillik ne`matlaridan barcha baxramand bo`ldi. Bu yuz yillik inson aql-zakovati va salohiyoti, ilmu-fan, texnika va madaniyatning taraqqiyot bosqichi bo`ldi.

Mustaqillika erishganimizdan keyin xalqimizning o`z yurti , tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga , o`zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzot borki , avlod-ajdodi kimligini , nasl-nasabini , o`zining tug`ilib voyaga etgan qishlog`i , shahari xullaski , Vatanining tarixini bilishni istaydi.

Vatan tuyg`usi – bu xalqimizning oltin merosi , an`analari tili va madaniyatiga hurmat bilan qarash , uning boy ijodini muttasil o`rganib borishdir.

Vatanimizga yuksak e`tiqod bilan yashash unga hamisha sadoqatli bo`lish barchamizning farzandlik burchimizdir.

O`zbekiston – Olloh nazari tushgan diyor. Umumiy qilib aytganda , bugungi kunda mustaqil O`zbekistonni butun dunyo tan oldi. Shu bois o`z ona tilini , yaxshi egallagan xalqning ko`p asrlik madaniyat sarchashmalaridan bahramand bo`lgan mamlakatimiz yoshlari zamonlardan-zamonlarga , ajdodlardan-avlodlarga madaniy , moddiy , ma`rifiy , ma`naviy boyliklarini xalqimizning boy tarixini , bobolaimizning yaratgan ilmiy merosini , ularning shon-shavkatini , bugungi erishayotgan yutuqlarini faqat o`z tili- jonajon ona tili orqaligina mustahkamlab qolish muqarrar. Chunki , ona tili inson qalbiga , avvalo ona allasi , ona tilini betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O`z tilini yo`qotgan har qanday millat o`zligidan judo bo`lishi ayon.

Darhaqiqat , til- millatning qalbi. Tilning shakllanishi , vujudga kelishi ming yillik tarixga borib taqaladi. Usiz millatni , uning o`tmishini yoki kelajagini tasavvur etmoq mushkuldir.

Chunki har bir millat va elatlar tarixan tashkil topgan bo`lib, u ma`lum til , hudud, iqtisodiy hayot va madaniyat birligiga suyanadi.

Ana shu to'rt belgi milliy til , ya'ni o'zbek til taraqqiyotida birinchi o'rinda turadi. Tilning taqdiri , uning yashashi va rivojlanishi o'tmish ajdod bobolarimizga va shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq bo'ladi.

Til –bu tarix. Til – bu xalq.Zero , shu nuqtai-nazardan yondoshmog'imiz darkor. Xalqning ma'naviy- ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti o'z ildizlarini birinchi galda tilda qoldiradilar.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'tgan yillar tom ma'noda rivojlanish va yuksalish yillari bo'ldi. Bu hayotimizning har bir jabhasida ko'zga tashlanib turibdi. Xususan, adabiyotimiz,tilimizda ham inqilobiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Xalqning qaddini tiklash uchun birinchi navbatda uning qadriyatlarini tiklash zarur. Muhtaram prizidentimiz rahbarliklarida ulkan islohotlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. U kishi o'zlikni anglash tarixdan boshlanishini¹ shuning uchun xalqimizning o'zigagina xos bo'lgan mentalitetni,qadriyat va boshqa xalqlarda uchramaydigan ijobiy jihatlarni o'zida aks ettiruvchi har qanday merosni ko'z qorachig'day asrash kerakligini² qayta-qayta uqtiradilar.

Ma'naviy merosimizni o'rganish,avvalo,milliy tilimizni o'rganishdan boshlanadi. Moziyga qaytib ish ko'rish xayrli bo'lur degan edi buyuk yozuvchimiz Abdulla Qodiriy. Ana shunday o'gitlardan kelib chiqib biz bitiruv-malakaviy ishimizda xalqimiz vakillari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar matnini tahlil qilishga urinib ko'rdik. O'zbek xalqining badiiy yozma asarlarining tili va ularning tarixiy jihatdan shakllanishi haqida,chuqur va teran g'oyalarni ifodalashdagi keng imkoniyatlariga, tilimizning milliy madaniyatimizni boyitishdagi ro'liga, so'z san'atkorlarining uslublari, mahoratlariga hamda halqimizning mana shunday qimmatli va go'zal boyligi haqidagi hayrli ishlarga nazar tashlamoqchi bo'ldik.

Zero, “Haqqoniy tarixni bilmasdan turub o'zlikni anglash mumkin emas, o'zlikni anglash esa, o'z tilini, uning cheksiz imkoniyatlari va jozibasini bilishdan boshlanadi”³

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. “Sharq” nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Toshkent, “Ma'naviyat” nashriyoti. 2008. 176 bet.

3. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent, “O'zbekiston” nashriyoti. 1997.

Mavzuning dolzarbligi

Inson tabiat va jamiyat hayotida mavjud bo'lgan, ro'y beradigan voqea-hodisalarning oddiy holatini betaraf tarzda his etadi va bu bilan cheklanib qolmaydi. Kishi ongida belgining o'z potentsional darajasidan ortiq yoki kamligi harakatning tezlik bilan bir lahzada sodir bo'lishi, davomiyligi, keskinligi, takroriyliги kabi nozik tomonlari ham aks etadi. Shuningdek, so'zlovchi voqelikka yoki suhbatdoshga nisbatan sub'ektiv munosabatda bo'ladi.

Til jamiyati taraqqiyoti, inson tafakkuri, hissiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli qiyos qilish jarayonida inson ongida paydo bo'lgan tushunchalar va sub'ektiv munosabatlar ham nutq orqali yuzaga chiqadi, voqe bo'ladi. So'zlovchining voqelikka bo'lgan bunday munosabatlari tilda turli model formalari emotsional, ekspressiv-stilistik vositalar yordamida reallashadi. Shunday qilib, inson o'z nutqida ob'ektiv olam nusxasini betaraf shaxs sifatida chizib berishi yoki shunga qo'shimcha ravishda ob'ektiv haqiqatga o'zining shaxsiy munosabatini ham qo'shib ifodalashi mumkin.

BMI ning maqsad va vazifalari

So'zlovchining voqelikka nisbatan betaraf va sub'ektiv munosabatiga ko'ra nutqning ikki xil formasi yuzaga keladi:

1. Intellektual (faqat fikrning o'zini, hech qanday emotsiyalarsiz ifodalaydigan kommunikativ funktsiyalarnigina bajaruvchi) nutq formasi.

2. Intellektual-emotsional nutq formasi. So'zlovchining mana shu psixofiziologik holati uning nutqida o'z aksini topadi, albatta. Demak, tilning ikki xil vazifasi bor:

- a) kommunikativ;
- b) stilistik.

Soʻzlovchining intellektual holati tilning kommunikativ funktsiyasida, emotsional holati esa stilistik funktsiyasida namoyon boʻladi. Intellektual va emotsionallik kategoriya sifatida bir-biriga zid qoʻyilsada, ular oʻzaro ajratib boʻlmaydigan biri ikkinchisiga taqozo qiladigan hodisalardir.¶

Nutqning intellektual formasi neytral soʻzlar va odatdagi grammatik vositalar orqali reallashadi. Intellektual-emotsional formasi esa maxsus ekspressiv-stilistik boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlar, affikslar, soʻz formalari, maxsus gap tiplari, soʻz tartibi va maxsus konstruktsiyalar vositasida reallashadi.

Biz mazkur ishda nutqning formasi – ekspressiv-emotsional nutq formasi haqida fikr yuritamiz. Ekspressivlikning tilda qay usullar orqali, qanday vositalar yordamida reallashini ochib berishga urinamiz.

Obrazlilik, tasviriylilik, ekspressivlik, emotsionallik kabi kategoriyalar hodisa, belgi va fikrning neytral holatiga nisbatan belgilanadi.

Malakaviy ishning ilmiy yangiligi

Ma'lumki, obrazlilik, tasviriylilik, ekspressivlik kabi terminlar qoʻllanishi jihatidan keng ma'nolidir. Bu hodisalar fikrning ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat qilishi jihatidan oʻzaro umumiylikka ega. Lekin ish koʻrish koʻlami til uslublariga xosligi jihatidan ular oʻzaro farq qiladi. Obrazlilik, tasviriylilik kabi hodisalar, asosan, yozma nutqqa, badiiy uslubga xos vositalardir. Ekspressivlik esa nutqning barcha uslubiga (garchi bir xil darajada boʻlmasa ham) mansubdir. Shunga koʻra obrazlilik, tasviriylikka mansub boʻlgan badiiy vositalar tilshunoslikning tekshirish ob'ektidir.

Mavzuning oʻrganilishi

Obrazlilik, tasviriylilik asosan yozma uslubga xos boʻlganidan faqat til vositalari asosida ifodalanadi. Ekspressivlik va emotsionallik nutqning barcha uslubiga xos boʻlganidan lingvistik va ekstrolingvistik vositalar (til taraqqiyotida ta'sir koʻrsatuvchi ob'ekt voqelikka doir shart-sharoitlar bilan bogʻliqdir. Tilning rivojlanishdagi bunday

ekstrolingvistik shart-sharoitlarga birinchi navbatda ijtimoiy-siyosiy faktorlar kiradi) asosida ifodalana oladi. Ko`rinadiki, ekspressivlik va emotsionallik kabi hodisalarning ish ko`rish ko`lami keng va xilma-xildir.

BMI ning tuzilishi

Mazkur ishimiz kirish , xulosa , foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan tashqari uch mustaqil bobdan tashkil topgan. Har bir bob o'z navbatida ichki qisimlarga ham bo'lingan.

I.Bob

1.1Ekspressiv-emotsional nutq formasi haqida.

Insonlar til vositasi orqali o'zaro aloqa qiladilar, bir-birlarining fikrlarini tushunadilar, fikr esa tilning eng muhim elementlaridan biri bo'lgan so'z va turli grammatik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Tilning vazifasi bu bilan cheklanmaydi, u his tuyg'u ifodalash uchun xizmat qiladi. So'zlovchi predmet hodisalar to'g'risida yoki suhbatdosh haqida xabar berar ekan, borliqqa nisbatan ob'ektiv munosabatda bo'ladi. Bunday paytda u o'z fikrini neytral so'z va intellektual nutq formasi vositasida ifodalaydi.

Inson tabiat va jamiyat hayotida mavjud bo'lgan, ro'y beradigan voqea-hodisalarning oddiy holatini betaraf tarzda xis etadi va bu bilan cheklanib qolmaydi. Kishi ongida belgining o'z potentsional darajasidan ortiq yoki kamligi harakatning tezlik bilan bir lahzada sodir bo'lishi, davomiyligi, keskinligi, takroriyliги kabi nozik tomonlari ham aks etadi. SHuningdek so'zlovchi voqelikka yoki suhbatdoshga nisbatin sub'ektiv munosabatda bo'ladi.

Til jamiyati taraqqiyoti, inson tafakkuri, hissiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli qiyos qilishi jarayonida inson ongida paydo bo'lgan tushunchalar va sub'ektiv munosabatlar ham nutq orqali yuzaga chiqadi, voqe bo'ladi. So'zlovchining voqelikka bo'lgan bunday munosabatlari tilda turli model formalari emotsional, ekspressiv-stilistik vositalar yordamida reallashadi. SHunday qilib inson o'z nutqida ob'ektiv olam nusxasini betaraf shaxs sifatida chizib berishi yoki shunga qo'shimcha ravishda ob'ektiv haqiqatga o'zining shaxsiy munosabatini ham qo'shib ifodalashi mumkin.

So'zlovchining voqelikka nisbatan betaraf va sub'ektiv munosabatiga ko'ra nutqining ikki xil formasi yuzaga keladi:

1 Intellektual (faqat fikrning o'zini, hech qanday emotsiyalarsiz ifodalaydigan kommunikativ funktsiyalargina bajaruvchi) nutq formasi.

2 Intellektual-emotsional nutq formasi. So'zlovchining mana shu psixo-fizologik holati uning nutqida o'z aksini topadi, albatta. Demak, tilning ikki xil vazifasi bor:

a) kommunikativ;

b) stilistik.

So'zlovchining intellektual holati tilning kommunikativ funktsiyasida, emotsional holati esa stilistik funktsiyasida namoyon bo'ladi. Intellektual va emotsionallik kategoriya sifatida bir-biriga zid qo'yilsada, ular o'zaro ajratib bo'lmaydigan biri ikkinchisiga taqazo qiladigan hodisalardir.¹

Nutqning intellektual formasi neytral so'zlari va odatdagi grammatik vositalar orqali reallashadi. Intellektual-emotsional formasi esa maxsus ekspressiv-stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar, affikslar, so'z formalari, maxsus konstruktsiyalar vositasida reallashadi.

Biz mazkur ishda nutqning formasi – ekspressiv-emotsional nutq formasi haqida fikr yuritamiz. Ekspressivlikning tilda qay usullar orqali, qanday vositalar yordamida reallashini ochib berishga urinamiz.

Obrazliilk, tasviriylk, ekspressivlik, emotsionallaik kabi kategoriyalar hodisa, belgi va fikrning neytral holatiga nisbatan belgilanadi.

Ma'lumki, obrazlilik, tasviriylk, ekspressivlik kabi terminlar qo'llanishi jihatidan keng ma'nolidir. Bu hodisalar fikrning ta'sirchanligini oshirishi uchun xizmat qilishi jihatidan o'zaro uzviylikka ega. Lekin ish ko'rish ko'lami til uslublariga xosligi jihatidan ular o'zaro farq qiladi. Obrazlilik, tasviriylk kabi hodisalar, asosan, yozma nutqqa, badiiy uslubga xos vositalardir. Ekspressivlik esa nutqning barcha uslubiga (garchi bir xil darajada bo'lmasa ham) mansubdir. SHunga ko'ra obrazlilik, tasviriylkka mansub bo'lgan badiiy vositalar adabiyotshunoslikning tekshirish ob'ektidir.

Obrazliilk, tasviriylkka asosan yozma uslubga xos bo'lganidan faqat til vositalari asosida ifodalanadi. Ekspressivlik va emotsionallaik nutqning barcha uslubiga xos bo'lganidan lingvistik va ekstrolingvistik vositalar (til taraqqiyotida ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekt voqelikka doir shart-sharoitlar. Tilning rivojlanishidagi bunday ekstrolingvistik shart-sharoitlarga birinchi navbatda ijtimoiy-siyosiy faktorlar

¹ Мартине А. Основы общей лингвистике М. 1963 г. С.48

kiradi)¹ asosida ifodalana oladi. Ko'rinadiki ekspressivlik va emotsionallik kabi hodisalarning ish ko'rish ko'lami keng va xilam-xil.

Ekspressivlik, faqatgina san'atkor, yozuvchilar tiligagina emas, jamoat arboblari, publitsistlar, hatto olimlar tiliga ham xosdir².

Ekspressivlik va emotsionallik tushunchalari o'rtasida ma'lum darajada umumiylik bo'lib, har ikkisi ham nutqning ta'sirchanligi uchun xizmat qiladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, tilshunoslar ko'pincha ularni birlashtirib, "Emotsional-ekspressiv" (yoki aksincha) tarzda qo'llaydilar. Har qanday so'z va boshqa til birliklari o'z qurshovidan chiqsa, boshqa maqsadda maxsus qo'llansa, ekspressivlik yuzaga keladi. Lekin undan tashqari ham o'zbek tili lug'ati sostavida lavang, galvars, jajji, tirmizak, tabassum, lapashang kabi bir qator so'zlar borki, ular ekspressivlik ifodalovchi so'zlardir. Bunday so'zlar ekspressiv leksikani tashkil qiladi. O'zbek tili bo'yicha chiqqan darslik va qo'llanmalarda ekspressiv leksikaga alohida o'rin ajratilgan. Masalan, M. Mirzaev, S. Usmonov va I. Rasulovlarning kitobida "Tushuncha ifodalashdan tashqari ko'pincha ta'sirchanlikka erishishi va nutqning ma'lum stilini yaratish maqsadida qo'llanilgan so'zlar ekspressiv-stilistik leksika deyiladi"³, -dega ta'rif berilgan.

Ekspressivlik va emotsionallik bir-biridan ajratiladigan hodisalar emas.

Bu hodisalarning birida ekspressivlik ustun, boshqasida emotsionallik ustun, yana birida har ikkisi teng bo'lishi mumkin. SHunga ko'ra, birinichisini ekspressivlik, ikkinchisini emotsional, uchunchi xilini emotsional-ekspressiv deb atash maqsadga muvofiq.

Demak, ekspressivlik obrozlilik, tasviriylilikning kuchaytirilishi, fikr ta'sir kuchining orttirilishi demakdir.

Nutqni yanada yorqinroq, ta'sirchan, taassurotliroq qiladigan narsaning hammasi ekspressivlikdir.

¹ Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Т. 1985-й. 110-111- бетлар

² Галкина-федорик Е. М., Горикова К. В., Шанский Н. М. Современный русский язык. Т. I 1962 г. с 99.

³ Мирзаев М. , Усмоном С. Ўзбек тили. Т. 1966-й. 45-бет

Demak, nutq ekspressivligi – nutqni yorqin, ta’sirchan, tasviriy, taassurotli qiluvchi vositadir¹. Prozaik nutq ham, she’riy nutq ham bab-barvar emotsional nutq sanaladi. Lekin she’riy nutq tabiati emotsionallik yuqori darajada bo’lishini talab qiladi. Albatta, she’riy asarlarda hissiylikni ta’minlovchi vositalar anchagina. She’rning ma’lum tartibda – barmoq yoki aruz vaznida yozilishi ham asarning emotsionalligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ammo she’riy asarning estetik ta’sir o’tkazishda poetik sintaksisning xizmatlari ham alohida.

Uslubiy figuralar deb ataluvchi ta’svir vositalari – inversiya, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, jim qolish, ritorik so’roq, ritorik murojaatlarning she’riy faol qo’llanilishi poetik sintaksisning o’ziga xos strukturasi mavjudligini ko’rsatadi. Tilimizning muhim boyligi sanaladigan tasviriy vositalar – o’xshatish, sifatlash, litofoara, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish va boshqalarni funktsional uslublarda ishtiroki turlichadir. Rasmiy hujjatlar uslubi va ilmiy uslubda tasviriy vositalari qo’llanilmaydi. So’zlashuv uslubi va publisistik uslubda ulurdan bimalol foydalanishi mumkin. Badiiy nutq uslubida yozilgan asarlarni esa tasviriy vositalarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ayniqsa, she’riy nutqda bu hodisalarning turini har bir misralarda, baytlarda uchratish mumkin. Mazkur ishda asosan she’riy nutqda ekspressivlikning ifodalanishi haqida fikr yuritiladi.

Hamma tillarda bo’lganidek, o’zbek tilining ham ekspressiv-emotsionallikni yuzaga keltiruvchi usul va vositalari, ko’lami qabullari bor.

Ma’lumki, ekspressiv-emotsionallik fonetik hodisalar yoki so’z formalari orqali ifodalanishi mumkin. SHunga muvofiq, o’zbek tilida ekspressiv-emotsionalllik ifodalanishining fonetik, leksik-frozelogik, morfologik va sintaktik usullari belgilanadi.

¹ Галкина-федорик Е. М., Современний русский язык. Т. I 1962 г. с 99.

1.2 O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.

Fonetik usul.

Fonetik usul bilan ekspressivlik yaratilishida ohang muhim o'rin tutadi. Avvalo ohangning mavjudligi gapning mavjudligidan darak beradi. Gapning boshlanishi, tugashi chegaralari ana shu ohangda ko'riniadi. SHunday ekan, ohang gapning shakllanishida zarur vositadir. Akademik V. V. Vinogradov rus tilida gapning xarakterli ikki belgisi:

- a) xabar yoki darak gapning ohangi;
- b) predikativ borlig'ini ko'rsatadi¹.

SHu ikki belgi mavjud bo'lganda so'zlovchining nisbiy tugallangan fikri yuzaga chiqadi, ya'ni gap hosil qiladi.

Ohangning vazifasi shu bilan chegaralanmaydi. Uning belgilari biror aniq tilning ikki qonuniyatlariga muvofiq turli vazifalarni o'taydi². Uning vazifalaridan biri so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalash, shu jumladan, ma'noni kuchaytirish, bo'rttirishdir. Gapni tashkil qilishida xizmat qiladigan ohangning eng asosiy vazifasi urg'u va musiqiylikdir, mana shu intonatsion elementlar munoasbatlarni turlicha bo'lishidan fonetik usulda ekspressivlikning turli ko'rinishlari ham yuzaga keladi.

Fonetik usul bilan ekspressivlik ifodalash o'zbek tilida boshqa usullarga nisbatan eng sermahsul hisoblanadi. Hozirgi o'zbek tilida fonetik usul bilan ma'no kuchaytirishning quyidagi ko'rinishlari bor

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish /zarb urg'u/;
- 2) unlini cho'zish /kvantativ urg'u/;
- 3) undoshni qavatlash /germinatsiya/ orqali ma'no kuchaytirish³.

Ekspressivlik ifodalovchi bu usulning har biridan hohlagancha foydalanish mumkin bo'lavermaydi. Bu usullardan qaysi birining qachon qo'llanishi mumkin yoki

¹ Виноградов В. В. Некоторые задачи изуч. Синтаксиса простого предложения «Вопросы языка знания». 1954 г. №1. с .12.

² Махмудов А. Интонацион структура хакида. “Ўзбек тили ва адабиёти”. 1962-й. 6-сон. 56-бет

³ Абдуллаев А. Ўзбек тилида Экспрессивликнинг ифодаланиши. Т. “Фан”. 1985-й. 9-+бет

mumkin emasligi ma'no kuchaytirishning qanday hodisaga nisbatan bo'lishi va boshqa ob'ektiv sabablar bog'langan bo'ladi. SHunga ko'ra bu yo'llar bilan intensivlik ifodalanishining o'ziga xos xususiyatlari va ularning qo'llanishi doirasini alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Unlini kuchli talaffuz qilishi bilan ma'no kuchaytirish eng keng qo'llanadigan usul hisoblanadi:

Jajji Lola paxta terdi,
Endi demang u go'dak.
Bir hovuchmas, bir do'ppimas,
Terdi rosa bir etak¹ /30-bet/

YOki

Har biri so'zlar ekan qadimdan
bir afsona,
Sahargacha ko'z yummay qulq
solgim keladi² /20-bet/

Ma'luki, mustaqil ma'noli so'zlar bir yoki birdan ortiq bo'g'inli bo'lishi bilan ma'no kuchaytirish shu so'z tarkibidagi unlini kuchli talaffuz qilish yo'li bilan bo'ladi. Ko'p bo'g'inli so'zlarda esa hohlagan bo'g'indagi unli kuchli-kuchli talaffuz etish bilan ma'no kuchaytirish mumkin bo'lavermaydi. Bunday so'zlarda ekspressivlik ifodalashning ma'lum tartibi bo'ladi:

a) urug'uli bo'g'indagi unlini kuchli talaffuz qilish bilan ma'no kuchaytirilidi: baland imorat, yo'g'on odam ...

b) urg'uni boshqa boshqa bo'g'inga /oldinga/ ko'chirib so'ng o'sha urg'u tushgan bo'g'inni kuchli talaffuz qilish bilan ma'no kuchaytiriladi: katta ko'cha, issiq choy ...

Urg'uli bo'g'indagi unlini kuchli talaffuz etish bilan ma'no kuchaytirish har qanday so'zlarda ham bo'lavermaydi.

¹ Э. Воҳидов. Муҳаббатнома. Г. Ғулом номли адабийт ва санъат нашриёти. Т. 1986-й. 30-бет

² Э. Воҳидов. Куй авжида узулмасин тор. Г. Ғулом номли адабийт ва санъат нашриёти. Т. 1991-й. 20-бет
Изоҳ: қолган мисоллар ҳам шу адабиётлардан олинади, бети кўрсатилиди ҳолос.

Quyi yoki yondosh undoshga ega bo'lgan birdan ortiq bo'g'inli so'zlarda ma'no kuchaytirish uchun odatda, urg'u shu quyi yoki yondosh undosh oldidagi unliga ko'chiriladi va o'sha unli kuchli talaffuz etiladi:

So'qmoqlarda tuproq kechdim,

Bosdim tog'lar toshini.

Qancha-qancha yillar kezdim,

Topgunimcha to seni /56-bet/

YOki

Hali seni tirnab-tirmashlab,

YUz martalab o'chirmog'im bor.

Qayta-qayta g'ijimlab tashlab,

Takror-takror ko'chirmog'im bor. /82-+bet/

Demak, qo'sh undosh hosil qilish bilan ma'lum so'zlarda urg'uni oldingi bo'g'inlarga ko'chirib, shu bo'g'indagi unlini kuchli talaffuz etish uchun sharoit yaratiladi, yuzaga kelgan bu sharoit /imkon/ asosida ma'no kuchaytiriladi.

Ochiq bo'g'in bilan boshlangan ma'lum so'zlarda urg'uni to'g'ridan-to'g'ri oldingi bo'g'inga ko'chirib bo'lmaydi. Masalan: qizil, sariq kabi so'zlarni qizil, sariq tarzida urg'uni oldinga ko'chirib talaffuz qilinmaydi. Bunday so'zlarda ma'no kuchaytirish maqsadi tug'ilar ekan, yum-shoq, qat-tiq, oz-gina so'zlaridagi kabi urg'u kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan shart-sharoitni hosil qilish zarur bo'ladi. Binobarn, qizil so'zidagi birinchi ochiq ochiq bo'g'inga bir undosh u yo piladi va shu qism o'zak oldidan qo'shiladi. Natijada yondosh undosh hosil bo'ladi. YOndosh undosh hosil bo'lgan o'rinda o'shandan oldingi bo'g'ingan urg'u ko'chirish imkoniyati yaratiladi. Va urg'uni ko'chirib o'sha bo'g'indagi unlini kuch bilan talaffuz etish hisobiga ma'no kuchaytiriladi.

Masalan:

Anhor bo'yi, ko'm-ko'k chimda

To'yib-to'yib qo'zilardek. /18-bet/

YOki

Buncha ham chiroylisan,

YAm-yashilsan har qachon.

/17-bet/

SHunday qilib, ma'lum so'zlarda uprg'uni kuchaytirish uchun ikki undoshning yonmayon bo'lishi talab etiladi. Ayrim so'zlarda mana shu shart bo'lgan sharoit bor /yum-shoq/ kabi, ayrimlarda bu shart mavjud emas /qi-zil kabi/. SHunga ko'ra, qi-zil kabi so'zlarda avval zaruriy fonetik sharoit hosil qilinadi /qip-qizil/, so'ng urg'u ko'chiriladi va o'sha urg'u ko'chirilgan bo'g'indagi unlini kuchli talaffuz qilish bilan ma'no kuchaytiriladi:

Meva berdi etilib bu yil,

Men bog'imga o'tqazgan nihol.

Mevlvrki, cho'g'day qip-qizil,

Husni yoqut, shirinlikda bol. /16-bet/

Juft va takroriy so'zlarda asosan ularning birinchi komponentidagi biror unlini kuchli talaffuz etish bilan ma'no kuchaytiriladi:

O'z davrida

davron surdi.

YOdlasin deb asrlar –

Necha-necha shahar ko'rdi

SHahar ichra –

Qasrlar ... /286-bet/

YOKi

To'yib-to'yib

qo'zilardek,

CHo'zildik ... /18-bet/

Unlini cho'zish bilan /kvantativ urg'u yordamida/ ma'no kuchaytirish fonetik usul bilan ma'no kuchaytirishining alohida bir turidir.

Zarb urg'usi bilan intensivlik ifodalashda hamma vaqt belgining kuchli darajasi ifodalanadi. Unlini cho'zish usulidan boshqacharoq holni ko'ramiz. Bunda:

1 Belgining normadagidan kuchsizroq ekani ifodalanadi:

Nogoh

Xazi-in sas eshitdi –

Sado keldi yiroqdan. /205-bet/

YOki:

To'lg'og'ida bu alamning

Tanho ingro-oq honish bor /248-bet/

Unlini cho'zish bilan belgining kuchsizroq darajasini ifodalash ham so'zlar darajasida uchraydi.

2 Belgining normal holatdan ortiq yuqori darajasi ifodalanadi. Belgini kuchaytirish esa, asosan, vaqt va masofaga nisbatan bo'ladi: uzo-oq, yo'l, qato-or imoratlar kabi.

Dahshat solib kezarkan u dam,

Uzoqlarda jang guldirosi /410-bet/

YOki

44-yil

Sentyabr tongi otdi

Meni cheksiz quvonch bilan baxt uyg'otdi. /410-bet/

Ravishdosh va shaxs-son bilan tushlangan fe'ldan tashkil topgan birikuvda ravishdosh komponentning urg'uli bo'g'inidagi unli cho'zib talaffuz etiladi va ma'no kuchaytiriladi:

O'rgatuvchi

Asta uning yoniga kelar.

Qulog'iga bir so'z aytar.

Egi-ib qomatin ... /178-bet/

Undoshni qavatlash bilan ma'no kuchaytirish juda kam so'zlar doirasida uchraydi. Bu hodisa undosh tovushlarning tabiati bilan bog'liq, albatta. O'zbek tilidagi ko'pgina undoshlarni qavatlab talaffuz qilish mumkin bo'lmaydi, balki ayrim unoshlarnigina qavatlantirish mumkin. SHunda intensivlik ifodalanadi. Masalan:

Bir mulla yutinib.

So'zlaydi yuvvosh:

“Ayb o'zimizda,

Odamlar bebosh”. /439-bet/

YOki

Ey g'uncha, sabr aylab

ummiddi vasl qilgil /66-bet/

Oxiri m, n, ng tovushlari bilan bitgan bir bo'g'inli takroriy so'zlarda o'ziga xos fonetik sharoitning mavjudligi, mazkur so'zlarda intensivlik ifodalash unlini cho'zish hisobiga bo'lmay, birinchi komponentdagi oxirgi undoshni cho'zish-qavatlash hisobiga bo'linishi talab qilinadi: yumm-yum yig'lamoqda, tunu-kun harakat qilmoq, ming-ming pushaymon qilmoq kabi.

Tarkibida sh, o, z tovushlari va ba'zan n, r, s, ng tovushlari bo'lgan so'zlarda mana shu tovushlarni qavatlashtirish orqali ma'no kuchaytiriladi.

Xullasi, hozirga o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning uch xil ko'rinishi – zarb urg'uli, unlini cho'zish va undoshni qavatlashtirish usullari bor. Bulardan unlini kuchli talaffuz qilish /zarb urg'u/ ma'no kuchaytirishning qolgan ikki usuliga nisbatan keng qo'llaniladi va bu usul bilan hamma vaqt belgining kuchli darajasi ifodalanadi.

Morfologik usul.

Ekspressivlik-emotsionallik ifodalashning morfologik usuli degan maxsus soʻz formalari vositasida, shuningdek maʼlum bir grammatik maʼno va funktsiyaga ega boʻlgan soʻz formasini maxsus qoʻllash orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalanishi tushuniladi. Maʼlumki, oʻzbek tilida soʻz turkumlaridan ot va feʼl formalarga boy. Boshqa turkumlarda esa forma yasalishi juda chegaralangan. Bu hol oʻz-oʻzidan, Ekspressivlik-emotsionallik ifodalashning morfologik usuli, asosan, ot va feʼl turkumiga xos ekanligini koʻrsatadi.

Ot turkumida Ekspressivlik-emotsionallik ifodalovchi formalar haqida gap borganda, birinchi navbatda ayrim ishlarda “subʼektiv baho formalari”, baʼzi ishlarda esa “kichraytirish-erkalash formasi” deb ataluvchi –cha, -jon kabi qoʻshimchalar bilan yasaluvchi (yigitcha, ukajon) formalarini koʻrsatish mumkin.

–cha, –choq, (–chak)qoʻshimchalari bilan yasaluvchi formalar deyarli barcha ishlarda kichraytirish formasi, ayrim ishlarda esa kichraytirish-erkalash formasi sifatida taʼriflanadi. Haqiqatdan ham bu affikslar bilan yasaluvchi formalarda “kichiklik” maʼnosi bor. Masalan:

Kim kechmaydi jonning bahridan,
Murgʻak jonni xalos etgani.
Alanganing shundoq bagʻridan,
Olib chiqdim bexush qizchani. /516-bet/

Bu oʻrinda qizcha soʻzi kichiklik maʼnosini anglatgan.

Oʻzbek tiliga oid adabiyotlarda erkalash formasini yasovchi affiks deb taʼriflanuvchi –jon, -xon, -oy affikslarining qoʻllanilish darajasi ham chegaralangan. Bu affikslar yasaluvchi formalarning asosiy vazifasi erkalash ifodalash emas, balki hurmatlash, eʼzozlash kabi maʼnolarni ifodalashdir. Masala:

Olimlar zehnining chirogʻi boʻlgan,
Munis ayajonlar,
Sizga tashakkur. /33-bet/

YOki:

Xayrlashar ekan,

Birinchi marta.

U odamni quchib,

Dedim:

“Dadajon!” /450-bet/

YOki:

Ey, Siz

Jajji, do'mboq ukajonlarim,

Istiqboli yorqin

Baxti barqaror /445-bet/

Birinchi gapda –jon affiksi hurmatlash, ikkinchi gapda e'zozlash, shuningdek sog'inish, uchinchi gapda erkalash, suyish maqsadida qo'llanilgan.

-loq qo'shimchasi kichraytirish bilan bog'liq holda ardoqlash maqsadida qo'llangan. Masalan:

O'ylasam, o'y bitmas hayot haqida,

SHu jajji qizaloq tabiatida.

Tabiatning buyuk kalomin ko'rdim. /19-bet/

Demak, bu affikslar ham erkalash ma'nosini universal tarzda ifodalovchi bo'lmay, sanoqli so'zlardan ekspressiv-emotsionallik ifodalashi mumkin va kerak bo'lgan holdagina qo'llanuvchi affikslardir.

Kichraytirish va erkalash formalari deb nomlanuvchi formalar muhim bir grammatik ma'noni (kichraytirish) va (erkalash) ifodalashdan ko'ra ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalash uchun qo'llaniladi. SHuning uchun bunday forma yasovchi ifodalarni ekspressiv-emotsionallik ifodalovchi maxsus vositalar deb hisoblash mumkin.

Birinchi shaxs birlik formasi sifatlash va metofora tarzida qo'llangan so'zlarga qo'shilib (u so'zlar shaxs bildiruvchi bo'ladi), doim ijobiy munosabat-suyish, ardoqlash, erkalash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan:

Bor, qizim, derdi u,

Bor do'mboqqinam,

Kuzda borib o'zim olib kelaman /450-bet/

YOki:

“Bolajonim, bormisan omon,

Sog’indingmi, yolg’izim, qo’zim?” /496-bet/

SHuningdek, ko’rsatish olmoshlari (u, shu) dan hosil bo’lgan miqdor ravishlariga – laraffiks qo’shilganida, ayniqsa, ma’noning kuchayishi aniq seziladi. Bunday qo’llanish juda kam uchraydi. Masalan:

Rahim qilg’il bitta o’zbek shunchalar

yolvoradir,

Tush o’zing, yo ayt, yoningga qaysi

yo’ldan boradir. /28-bet/

shuncha so’zi haqidagi so’roqni bildiruvchi qancha so’zi ham –lar affiksini olib, ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi, xuddi shunchalar so’zi iodalangan ma’noni anglatadi masalan:

Qanchalar zo’r bo’lsa vasl ishtiyoqi,

SHunchalar lazzatli bo’lg’usi visol. /2-bet/

Ekspressivlik ifodalashning bir usuli bir o’zakli so’zlarning maxsus qo’shimchalar yordamida birikishidan hosil bo’lgan (analitik) formalaridir. Analitik formalar bir o’zakning qaratqich-qaralishi formalari natijasida hosil bo’ladi.

Intensivlikni (belgining me’yoridan o’ta kuchli ekanini) ifodalovchi bir o’zakli so’zlarning qaratqichli birikmalari sifat va o’zida bir oz bnlg tasavvurini ham ifodalovchi otning birikuvidan tuziladi. Bunda bir sifat yoki bir otning aynan o’zi qaratqich-qaralishi formalari vositasida takrorlanadi: donolarning donosi, olimlarning olimi kabi. Sirtan qaralganda bu konstruktsiya oddiy qaratqichli birikmaga o’xshaydi. Lekin o’zining semantik, grammatik xususiyatlari bilan undan farq viladi, birinchidan bundan qaratqichli birikmadagi singari qarashlilik, xoslik ma’nolari emas, intensivlik ifodalanadi; ikkinchidan uning komponentlari gapda qaratqich-qaralishivazifalarida bo’lmay, yaxlitligicha kesim, undalma, ba’zan to’ldiruvchi vazifalarida bo’ladi. SHunga ko’ra, bu knstruktsiyani intensivlik ifodalashga xoslangan analitik forma deb izohlash mumkin. Masalan:

Meni derlar

Nashvati,
SHarbatlarning
SHarbati,
Mazalarning
Mazasi,
Lazzatlarning
Lazzati.

/40-bet/

Xullas, morfologik usul ham ekspressivlik ifodalashning sermaxsul usullaridan biridir.

II Bob

2.1 Leksik-frazeologik usul bilan ekspressiv-intensivlikning ifodalanishi

Leksik-frazeologik usul deganda ekspressiv-intensivlikning lug'aviy birliklar vositasida, ya'ni so'z va frazeologizmlar bilan ifodalanishi tushuniladi.

Tilning ahvoli va uning leksika sohasidagi rivojlanishi darajasi so'zlarning faqat umumiy miqdori-soni bilangina belgilanmaydi.

So'zlovchi yoki yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni tinglovchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib etkazib berishga harakat qiladi. Masalan: ko'pincha biror narsa belgi, xususiyatini tinglovchi yoki o'quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. SHunday vaqtlarda so'zlovchi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda aytganimizdek birdan ortiq uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirib tashlashdan qochadi-yu, ammo shu fikrni boshqa vositalardan (jumladan, o'xshatish, sifatlash, kinoya, allegoriya, ellipsis va hokozo) foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deyiladi.

Maxsus ifoda-tasviriy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga bo'linadi:

Troplar so'z ma'nolarini turli xil printsip asosida ko'chirish usulidir. Ularnutqiy obraz yaratish, ekspressiv, emotsional his-tuyg'ular ifodalashning maxsus qabullaridir.

Trop grekcha "trops" so'zidan olingna bo'lib, ko'chirma oborot, kinoya ma'nosini anglatadi. Badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko'chma ma'noda qo'llangan nutq figurasi, kinoya, ramz bilan qo'llangan so'z, ibora¹.

So'z birikmasi turli xil qoida asosida yangi ma'noga ko'chiriladi. SHunga ko'ra tropning xilma-xil turlari bor: litafora, allegoriya, ironiya, mubolag'a, litota kabilar.

Trop qo'llash badiiy nutqda yangi mazmundagi yangi so'z birikmalarini vujudga keltiradi. Nutqni boshqacha ifodalangan yangi fikr bilan boyitadi, nutqning ma'lum hodisaga munosabatini bildirish yo baho berish uchun qulay imkon yaratadi.

¹ A. Хожиев. Лингвистик терминлар луғати. Т. 1985-йил. 94-бет

Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyos qilish troplarga asos qilib olinadi. Quyida troplarning turlariga to'xtalamiz.

Epitet (sifatlash) Grekcha so'z bo'lib, izohlovchi degan ma'noni anglatadi. Epitet (aniq) poetik aniqlovchidir. U boshqa doimiy aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilish, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Epitet narsa, hodisa yoki tushunchaning biror xususiyati, belgisini alohida baholab ko'rsatish uchun o'shanday so'zlar oldidan qo'shimcha tarzda keltiriladigan so'zdir.

Uchqur zamon bilan qalqib, chayqalib,

CHarx urib boraman girdoblar aro.

Beshafqat tezlikdan asabim tolib,

Bir nafas tin olsam, deyman-u, ammo ...

Bu baytlardagi "uchqur" va "beshafqat" so'zlari o'zidan keyin kelayotgan so'zlarga nisbatan epitet vazifasini bajaradi.

Senga bo'lsin nurli kunduz,

Menga qolsin qolsin qora tun.

Barcha gulshan senga bo'lsin,

Bor tikonzorlik menga. /240-bet/

Bu misolda shoir tun oldidan oddiy sifatlovchi qora so'zini, kunduz oldidan nurli so'zini keltiradi. Ushbu sifatlovchilar tun, kunduz so'zlarining "qorong'u" va "yorug'" kabi sifatlarini yanada oshirish uchun xizmat qiladi. Hamda, baytda ekspressivlikni oshiradi.

Epitet sifatida, odatda, sifatlardan foydalaniladi. SHuningdek, otlardan, sifatdoshlardan ham epitet sifatida foydalanish mumkin:

CHo'llarining kiyinib ko'k beqasamga,

YAshnab ketdi baxmal Farg'ona bo'lib.

Qahramonlik barpo qilgan bo'stonim –

O'zbekistonim. /222-bet/

YUqoridagi misralarda "baxmal" so'zi "Farg'ona"ga nisbatan epitetdir.

YOki:

To'lib oltin chanoqlariga

Mayin jilva qilib kuldilar.

Terimchi qiz quchoqlariga

Oppoq paxta bo'lib to'ldilar. /51-bet/

Bu parchadagi oltin so'zi "qimmatli", "qadrli" semalari bilan reallashgan bo'lsa, quyida keltiriladigan parchadagi "zumrad" so'zi rang semasi bilan reallashgan:

CHeksiz vodiylarning

Zumrad tusiga

Rashku-havas bilan

Boqadi osmon. /106-bet/

Uslubiy epitetda muallif ta'sirlanayotgan narsa yoki voqeaning o'zi zarur deb hisoblagan tomonini ma'lum nuqtai nazardan turib baholaydi. Masalan, shoir:

Zulmat tuniga ham keldi nihoya,

Tomining ufqida tong turdi oxir. /221-bet/

Der ekan tun oldidan zulmat so'zini keltiradi. Ammo bu so'zni ko'chma ma'noda (oldin yashagan turmushni "zulmat tun"ga o'xshatadi) ishlatadi va ekspressivlikni ta'minlaydi. Eski turmushni tanqidiy baholaydi.

Demak, epitet (grekcha "epitheton"-ilova, qo'shimcha) predmetning sifatini tasvirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so'z hamda tropning bir turidir¹. She'riy nutqda epitet juda ko'p qo'llaniladi. Hamda ekspressivlikni oshiradi.

O'xshatish. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshatishlikka asoslanib, ulrning biri orqali ikkinchisini belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berish o'xshatish deyiladi. O'xshatish eng qadimgi va eng ko'p qo'llaniladigan tasviriy vosita bo'lib, u asosan, nutqiy hodisa hisoblanadi². U mumtoz adabiyotda tashbeh deb yuritiladi. O'xshatish to'rt asosiy qismdan iborat:

- 1) o'xshatilgan narsa;
- 2) o'xshatiladigan narsa;
- 3) o'xshatish asosi belgi;

¹ . A. Xोजиев. Лингвистик терминлар луғати. Т. "Ўқитувчи". 1985-й

² Р. Қўнғуров. Э. Бегматов,Тожибоев Нутқ маданияти ва услубиятлари асослари. Т. "Ўқитувчи". 1992-й. 99-бет.

4) o'xshatish vositasi.

She'riy nutqda ham o'xshatish eng ko'p tarqalgan, qo'llangan bo'lib, bu o'xshataishlar badiiy estetik niyatga mos ravishda tanlangan.

Toring ming bulbulday

Toshib sayrasin

G'amu hasratlarni

Aylagin barbod. /236-bet/

Bu misolda o'xshatilgan narsa – tor, o'xshatiladigan narsa – bulbul, o'xshatish asosi – sayramoq, o'xshatish vositasi – day.

O'xshatishlardagi nutqiy obrazlilikni ayiruvchi asosiy xususiyat faqvuqulotda o'xshatishdir. Agar o'xshatiladigan narsa yoki hodisa orasidagi belgi oldindan ma'lum bo'lsa, bunday o'xshatishlar nutqning obrazlilikini kuchaytirmaydi. SHunga ko'ra o'xshatishlarni ikki turga ajratish mumkin:

1. Umumnutq o'xshatishlari;
2. Badiiy o'xshatishlar.

Umumnutq o'xshatishlarning ob'ekt va sub'ekti avvldan ma'lum bo'ladi. Badiiy o'xshatishlar asosida ko'pinchalikka ma'lum bo'lmagan belgi chog'ishtiriladi.

O'xshatish hosil qiluvchi vositalar ikki xil bo'ladi va bu vositalar she'riy nutqning emotsionlligini oshirishga yordam beradi. Bular:

1. Leksik vositalar;
2. Grammatik vositalar.

Leksik vositalar quyidagi so'zlar yordamida hosil qilinadi:

1) “yanglig” yordamida:

So'ng olamga yoygin qanot,

Elni o'zga qilgali “shaydo”,

Quyosh yanglig' bir kuni –

Hayhot! –

Gazetada bo'lursan paydo. /18-bet/

2) “singari” : yordamida

Samarqand yulduzlari la'limika,

dur dona.

Naqsh olmalar singari terib olgim

Keladi. /20-bet/

3) “xuddi”, “go’yo” so’zlari o’xshatish asosi bo’lib
kelgan so’zdan oldin keladi:

Bu kecha ko’k ummoni ma’allarga

to’lig’dir,

Hilolga qo’ngan yulduz suzar go’yo

elkanda /20-bet/

YOki:

SHundan oyning yuzi dog’ekan ...

YUlduzlar ham xuddi munchoq yosh /36-bet/

YOki:

Ufqlarga mag’rur ko’z tikib,

Sukut ichra boqadi haykal.

Osmoq bo’lsa yov yana ming bor,

Solsa yana ming xil qiynoqqa.

Mag’rur bu qalb go’yoki tayyor,

YAna ming yil sukut qilmoqqa. /47-bet/

Bu misolda o’xshatishning mubolag’ali turidan foydalanilgan

4) “misol”, “bamisoli”, “misli” kabi so’zlar yordamida:

Hayotim shu –

CHopmoq.

Tinmay bir nafas,

Halqa ichidagi olmaxon misol /163-bet/

YOki:

Odam yashar zamon yukin orqalab,

Serg’alvaroq kechasidan buguni.

Orom bermas ko’kragida betinch qalb,

Bamisoli dastro’molning tuguni. /37-bet/

YOki:

Sen baland tog' uzra erding

Misli ohu yoki qush,

YOlvorib men psta derdim:

Bir nafas yonimga tush /28-bet/

5) "kabi" yordamida:

Bosbon bo'lsin she'rim boshida,

O'sha yulduz kechayu kunduz.

Zuhro kabi yaraqlab tursin,

Tunlar o'zim yumganda ko'zim. /36-bet/

YOki:

Tun qorong'usida men

Soching shabistonin ko'ray,

Tongotarda yuzlaringni

Tong kabi ravshan topay. /171-bet/

6) "deb", "ravishli", "bo'lib", "shekillik" so'zlari ham ma'lum darajada o'xshatishni yuzaga keltirishda ishtirok etadi:

... Erk deya atalgan tabarruk shamga

Intilding bir umr parvona bo'lib.

Parvonadek kuyib o'rtangan jonim –

O'zbekistonim.

Grammatik vositalar maxsus qo'shimchalar yordamida yuzaga keladi:

1) –dek, -day, -daqa, -dak qo'shimchalari yordamida:

Ishq so'zin takror etibdir,

To'tidek har dam tilim.

CHunki bu til lablaringdan

To'ti yanglig' so'rdi qand. /256-bet/

YOki:

Quzg'kning qanotiday,

Qaro edi o'sha tun.

Na milt etgan yulduz bor,
Na yilt etgan bir uchqun. /414-bet/

2) –ona qo'shimchasi yordamida:

Olimona sochlar parishon,
Tinmay chekar,
Balki vaqt ziq.
O'sha yulduzli osmon

O'yga cho'mgan kimyogar CHirchiq /135-bet/

3) –simon qo'shimchasi yordamida:

To'xtasam, to'kulgim bir tomchisimon,
Tomchidek yo'q bo'lib ketgum olamdan. /41-bet/

O'xshatishga faqat badiiy vosita sifatida qarash uning nutq jarayonidagi vazifasi toraytirishiga olib keladi. O'xshatish nutqning bezagi, til hodisasi bo'lib, u badiiy nutqdan tashqarida ham ifodalashlar orqali favqulotda kishining hayliga kelmagan fikr ifodalanib, bu holat nutqning jozibaliligini kuchaytiradi. SHuni ham aytish kerakki, har o'xshatish munosabati tilda aks etar ekan yoki sodda bir gap doirasida ifodalanar ekan, gapning mazmun sig'imi ortadi, ya'ni kichik shaklda katta mazmun ifodasi uchun xizmat qiladi.

2.2 . So'z ma'nosining ko'chirish usuli bilan ekspressiv-intensivlikning ifodalanishi

Metafora. Adabiy-badiiy janrlar stilistikasining muhim muammolaridan biri nutqiy ekspressiya muammmosi va shu bilan bog'liq bo'lgan badiiy konteksning obrazliligi muammosidir.

Metafora grekcha so'z bo'lib, ko'chim degan ma'noni bildiradi. Metafora leksik ma'noning taraqqiyotini ko'rsatuvchi til hodisasi bo'lib, u so'zlarning ko'chgan ma'nosi asosida yaratiladi.

Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshatishlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir. Masalan, kishi uirining yoshligini "g'uncha", yigitlik davrini "bahor"

so'zlari, hayotdan ko'z yummoq-o'lmoq ma'nosida "so'ldi", "xazon bo'ldi" so'zlari ishlatiladi. Bunday o'rinda yuqoridagi "bahor", "so'lmoq", "xazon bo'lmoq" so'zlari ko'chma ishlatilganligi sezilib turadi. Demak, g'uncha va yoshlik, bahor va yigitlik, o'lmoq va so'lmoq so'zlari anglatgan ma'noda qandaydir yaqinlik mavjud.

Metafora nutqda ma'lum stilistik maqsadalar uchun xizmat qiladi. So'zlarni metaforik ko'chma ma'noda qo'llashning asosiy vazifasi nutqning obrazlilik, tasviriyligi va shular asosida ekspressivlikni yaratishdir.

Obrazlilik, tasviriylilik, ekspressivlik abi tushunchalar orasida ma'lum darajada yaqinlik, umumiylik bor, lekin shunga qaramay ular bir xil tushunchalar emas.

Ekspressivlik-obrazlilik, tasviriylilikni kuchaytirish, aytmoqchi bo'lgan fikrning ta'sir kuchini orttirish demakdir¹.

Obrazlilik, tasviriylilik kabi kategoriyalar, asosan, badiiy nutqqa xos. Badiiy nutqda tilning estetik funktsiyasi namoyon bo'ladi. Har qanday so'z, har qanday nutq vositasi badiiy asarda mumkin qadar obrazlilik, tasviriylilik uchun xizmat qilishi lozim, u o'quvchiga alohida kuch bilan ta'sir qilsin. Lekin har qanday obrazli ifodani ekspressivlikka tenglashtirib bo'lmaydi.

Badiiy nutq uchun ekspressivlik obrozlilikning eng oliy darajasidir².

Metafora, asosan, badiiy nutqda qo'llanib, obraz yaratish uchun tasviriyl vosita sifatida xizmat qiladi. Bu fikrni metafora favqat badiiy nutqda ishlatiladi, deb tushunmaslik kerak. Metafora so'zlashuv nutqida ham, nutqning boshqa xil formalarida ham nisbatan ozroq bo'lsa-da qo'llaniladi.

Metaforizatsiya odatda so'zning biror xarakterli belgi-xususiyati bilan ajralib turuvchi predmetlarning ismlari, shuningdek, o'zida xarakterning intensiv darajasini (maxsus qo'llanganda) ifodalovchi fe'llar asosida hosil qilinadi. SHunga ko'ra ularni ikki tkrga ajratish mumkin:

- 1) Ot – metafora;
- 2) Fe'l – metafora.

¹ Галкина-федорик. Е. М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке сб. статей по языкознанию МГУ с. 197

² Кожина М. Н. Стилистика и некоторые категории. Перм 1961 г. с.29

Otdan tuzilgan metaforalar, garchi ular predmet nomlari bo'lsa-da, predmet ma'nosini emas, balki o'sha otga xos belgi ma'nosini bildiradi. Chunki metaforizatsiya uchun o'sha otlarning xarakterlari belgi-xususiyatlari asos qilib olingan bo'ladi:

Fursat – oltin,
Sen ko'krak kerib
Oltiningni sohib borasan.
Fursat quvar,
Ungacha berib
So'rog'idan qochib borasan. /27-bet/

Yoki:

Men yolqinman,
Olovli davrim
Ko'kragidan otilib chiqqan
Men chaqinman,
Lahzalik umrim
Bulutlarning bag'rini yirtgan.
Yo'q, men gulman,
O'lkam ko'ksida
Bir gul bshlib mangu qolaman.
Men lolaman alvon shafaqning
Otashida yongan lolaman. /38-bet/

Ot – metaforalarda ekspressivlik so'zlovchining narsa, belgi, voqelikka bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati nuqtai nazaridan bo'ladi:

Ey guli, sevgilim haqi,
Maydan meni qilma judo,
Menmi ul ortiq dema,
Sen ham shirin, ul ham shirin. /88-bet/

Ot – metaforalar maxsus kuchaytiriluvchilar bilan qo'llanishi ham mumkin:

O'lmagan qul borki,

YOsh to'yi qilar.

Kimligini bilmagan,

O'shanda bilar. /241-bet/

Fe'l – metaforalarda ekspressivlik, asosan, holatining intensivligi nuqtai nazaridan bo'ladi:

Firohida kuyib derman:

U qasi sirli qudratkim,

Meni unga yaqin aylab,

Uni mendan yiroqlabdur. /104-bet/

YOki:

Lekin baxtu iqbol kulmadi senga,

Ham olis edi sen kutgan najot. /221-bet/

Fe'l – metaforalar hayvonot, parranda, o'simlik, hashorat kabilirga xos harakat, xususiyatlarni insonga ko'chirish asosida ham yaratiladi. Bu hodisa hayvonot, parranda, o'simlik, hashorat nomlarini metaforaga ob'ekt bo'lishi bilan chambarchas bog'liq va o'shandan kelib chiqadigan xulosadir. Masalan, insonning biror harakatini parranda yoki boshqalarning harakatini ifodalovchi so'z bilan almashtiriladigan bo'lsa, insonni, avvalo, o'sha narsaga o'xshatiladi. CHunonchi, sayramoq so'zi insonga nisbatan qo'llansa, uni (insonni) birinchi navbatda bulbul, to'ti yoki shu kabi qushlardan biriga o'xshatiladi.

Bu tipdagi metaforalarda ekspressivlik so'zlovchining voqelikka ijobiy, ko'pincha salbiy munosabati nuqtai nazaridan bo'ladi:

Hay'atlarda kekkayib,

YAyra b yurar Matmusa.

Biz undoq, biz bundoq deb,

Sayra b yurar Matmusa. /200-bet/

Metafora tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

a) soda;

b) kengaygan.

Sodda metafora birgina soʻzdan tashkil topsa, kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq soʻzlardan tuziladi. Masalan, gumbaz (osmon maʼnosida), ilon (sovuq odam maʼnosida), arslon, lochin (kuchli odam maʼnosida), tulki (makkor maʼnosida) kabi soda; poʻlat ot, zangori kema (paxta terish mashinasi), oq oltin (paxta), zangori oltin (olov), poʻlat qush (samoliyot maʼnosida), qora oltin (neft) kabi metaforalar esa kengaygan metaforalardir:

Haqli, agar oʻz kasbi bilan,
Gʻurur qilsa paxtazor ahli.
Oq oltin ham shuncha sevinchdan,
CHanogʻiga sigʻmasa haqli. /51-bet/

Ushbu bandda paxta soʻzining oʻrnida «oq oltin» kengaygan metaforadan foydalanilganki, bu misollarning ekspressivligini yanada oshiradi. Albatta shoir oq oltin oʻrnida:

Paxta ham shuncha sevinchdan,
CHanogʻiga sigʻmasa haqli, –

deyish ham mumkin edi. Lekin unda birinchidan sheʼr vazni buziladi, ikkinchidan mazmun sayozlashadi. Paxta soʻziganisbatan «oq oltin» metaforasi taʼsirchanlikni oshiradi. Paxta soʻzining oltin kabi qimmatli, bebeho ekanligi metafora usulidan foydalanish orqali ochib berilgan. Demak, metaforalarni qoʻllayotganda soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari hamda ular oʻrtasidagi yaqinlik, oʻxshashlikni yaxshi bilish kerak ekan. Aks holda aytilayotgan fikr tinglovchi yoki oʻquvchida notogʻri tasavvur xosil qilishi ham mumkin. Quydagi misolda metaforaning eng yaxshi namunalarini koʻramiz:

Mana baxt qushini boshga qoʻndirib,
Yigit samolarda qilmoqda parvoz.
Quvonch, sevganingni ZAGS ga koʻndirib,
Sen davlat ishini bajarding shovvoz. /227-bet/

Badiiy matnlarda, shuningdek, sheʼriy nutqda insolar va ulaning xarakteri hayvonlar, parrandalar, jonivorlar, hashoratlar, darxtilarda, oʻsimliklar, shuningdek, tabiiy resruslarga qiyos etiladi va natijada nutqqa obrazlilik, emotsiya kiritiladi. Lekin

buning aksi bo'lishi ham mumkin, ya'ni narsa va hodisalar insonga qiyos etilishi ham mumkin. Masalan:

Keksa qarag'ayning ildizin ochib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasdi, ungan eridan ... /158-bet/

YOki:

Boshi uzra ko'tardi
Tutib po'lat kaftida,
Tuproq najot ko'tardi
YOnib quyosh taftida ... /58-bet/

Avvlg misolda shoir qarag'ay ildizini odam panjasiga o'xshatsa, keyingisida ekskavatorning kranini odam kaftiga qiyoslayapti.

Xullas, metofoalar nutqning obrazlilik, ta'sirchanligi, ekspressivligi uchun xizmat qiladi.

Metonimiya – grekcha so'z bo'lib, boshqa nom berish degan ma'noni anglatadi. Metonimiya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Bunda tashqi yoki ichki tomonidan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Agar metaforada bir-biriga o'xshash narsalar belgilari ko'chirilsa, metonimiyada ikki narsa bir-birlari bilan qandaydir aloqada bo'lsa ham, umuman o'zaro farqlanuvchi (bir-biriga o'xshashlikka asoslanmagan) narsalar belgilari chog'ishtiriladi, ko'chiriladi.

Kechalaring osudadir, bir odam –
YOdi bilan band bo'lmagan o'ylaring ...
«YOsh Verter»ni o'qib meni ham –
Sevarmikin kimdir deya o'ylading. /66-bet/

Keltirilgan misoldagi «YOsh Verter» so'zlaridan badiiy asar tushuniladi.

Quyidagi misralarda «Bolalar uyi panoh berdi» birikmasi

Dedim: «Dadajon!» manna yillar o'tdi,
Bolalar uyi

Panoh berdi menga,

Berdi tarbiya.

Metonimiyadan foydalanish nutqda ixchamlikka olib keladi, badiiylikni, ta'sirchanlikni oshiradi:

Xo'sh, kim elchi? Ha, bilib ishning ko'zin,

Elchi qildik mulla «Mushtum» ning o'zin. /47-bet/

Bu misolda shoir «Mushtum» jurnalida o'rnida mulla «Mushtum» iborasini qo'llagan va metonimiyaning go'zal namunasini yaratgan.

YOki:

«Faust» yondi gurullab

«Xamsa» o'tga tutashdi.

Bir sado jahon bo'ylab,

Taraldi, tog'lar oshdi. /153-bet/

Demak, metonimiya (grekcha qayta nomlash) bir predmet, belgi, harakatning nomini o'zaro tashqi yoki ichki bog'liqlik asosida boshqa predmet, harakat yoki belgiga ko'chirishdir¹.

Mubolag'a. Mubolag'a orttirib, bo'rttirib ko'rsatish, mahavot qilish ma'nosini bildirib, nutqda kuchli ekspressiya hosil qiluvch – qabullardan hisoblanadi. Ayrim adabiyotlarda bu atama o'rnida giperbola atamasini ham ishlatilgan.

Giperbola (grekcha huperbola – mubolag'a.) Narsa-hodisa, protseslarning belgi xususiyatini, holatini o'ta bo'rttirib tasvirlashdir.

Mubolag'a ham ko'chma ma'noga asoslanadi. Lekin tropning boshqa turlaridagi ko'chma ma'no asosida qandaydir o'xshatish, qiyos yoki boshqa biror narsa voqea-hodisa tushunilsa, mubolag'a san'ati to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab qiladi. Fikrimizni quyidagi misollar tasdiqlaydi:

Qadimiy shahrim uzra kezaman

dilga g'urur,

YUlduz to'la osmonni ko'targancha

¹ А. Ҳожи́ев. Лингвистик терминлар луғати. Т. “Ўқитувчи”. 1995-йил. 54-бет

YOKi:

Agar ko'ksim uzra uxlasa birdan,

Tutmoqqa qodirman tog'lar toshini /34-bet/

Qadim adabiyotimizda mubolag'a badiiy mahorat, asar uchun zaruriy fazilat sanalgan. SHu sababli shoirlar ham mubolag'aga ko'p murojaat qilganlar, hatto ba'zan uni oshirib yuborganlar. Albatta, bu an'ana, ya'ni mubolag'a san'atidan unumli foydalanish hozirda ham davom etmoqda. Tilimizning badiiy ta'sirchanligini yanada oshirmoqda.

Behad kuchaytirilgan, bo'rttirilgan mubolag'a ifrat yoki ifrak deyiladi.

Mubolag'a haqiqatga ma'lum darajada mos kelishi kerak, aks holda badiiy bo'yoq yo'qoladi, o'quvchida ishonchsizlik hosil qiladi.

Klassik adabiyotda mubolag'aning tablig', ig'roq, g'ulluv kabi ko'rinishlari ham ishlatilgan¹.

Mubolag'ali tasvir haqiqatga yaqin kelganga o'xshab ko'rinadi, ammo uning amalga oshishi mumkin bo'lmaydi. Mubolag'aning bu turi klassik adabiyotda tablig' deb yuritilgan:

CHo'qqidan bir kichik tosh yumalasa,

Tog'ni qulatgudek suron qiladi.

Ko'zingdan bir tomchi yosh yumalsa,

Tog'dek yuragimni vayron qiladi. /147-bet/

YOKi:

Zamin dardicha bor bir ayol dardi,

Oyning dog'i balki uning dog'idan,

Faryod olov bo'lsa olam yonardi,

SHarqlik juvonlarning chekkan ohidan /220-bet/

¹ Р. Қўнғуров, Э. Бегматов, Ё. Тожиев Нутқ маданияти ва услубияти асарлари. Т. “Ўқитувчи”. 1992-йил

Agar mubolag'ali tasvirlangan narsani faqat tasavvur qilish mumkin bo'lib, amalda bajarilishi hech ham mumkin bo'lmasa, mubolag'aning bunday ko'rinishini ig'roq deb atalgan:

CHingiz olatoviga baxsh etdi yurak,
Mirzo g'azalida kuldi Badaxshon ...
Men yurtimni yozsam bo'lmog'i kerak
Osmon oq qog'ozu, dengiz siyohdon /482-bet/

Mubolag'aning uchinchi bir turi g'uluv deb yuritilgan bo'lib, unda tasvirlanayotgan narsa yoki hodisani amalda bajarish mumkin emas, hatto tasavvur qilish ham mumkin bo'lmaydi:

Keng falakni quchdi inson
Lek ming yil o'tsa ham,
Ilk muallimdir Samarqand
Ilmu aflok bobida.

Litota. Kichraytirish ham mubolag'a kabi nutqda kuchli ekspressiya hosil qiluvchi qabullardan hisoblanadi.

Kichraytirish deb narsa va hodisalarni o'z holatiga nisbatan haddan tashqari kichraytirib tasvirlashga aytiladi. Ba'zi lisoniy adabiyotlarda "kichraytirish" o'rnida litota atamsidan foydalanilsa, boshqalarida litozis terminining ishlatilishini ko'ramiz. Klassik adabiyotimizda bu san'at tafriy deb ataladi.

Litota (grekcha litotes-oddiylik) narsa, hodisa yoki belgining hajmi, kuchi kabilarni kamaytirib tasvirlashdir¹.

Litota qabuli ifodalanish formasi jihatidan giperbola, ya'ni mubolag'aning aksi sanaladi, lekin mohiyati e'tiboribilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikka haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ularning ifodalanishi usulida farq bor. Giperbolada voqelik to'g'ridan-to'g'ri, bevosita bo'rttirib ko'rsatilsa, litotada biror voqelikni kichraytirish vositasida beriladi.

¹ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент. "Ўқитувчи" 1985-й.

Masalan, biror hodisa, belgini kichraytirib ko'rsatish bilan shularga qiyos qiluvchi boshqa narsa, hodisa, belgining haddan ziyod kuchli, katt aekaniga ishora qiladi:

Biz ikki zarramiz,

Uchrashib qoldik.

Buyuk va Besarhad,

Mangulik aro. /488-bet/

Deyish bilan Erkin Vohidov kitobxon ko'z oldiga butun bir odamlarni zarra kabiligini keltiradi, bu bilan o'sha "ikki zarra" uchrashgan erning buyuk va kattaligi bo'rttirib tasvirlanadi.

Quyidagi misolda esa inson bir qatra yoshni ham ko'tarishga ojiz, kuchsiz va ilojsiz kabi tasvirlanadi:

Hayhot, ko'tarolmam, kiprikларingdan,

Uzilgan bir qatra qayg'u yoshini. /147-bet/

Apostrofa. Apostrofa grekcha "og'ish" so'zidan olingan bo'lib, u ham tropning bir turidir. Unda jonsiz narsa harakat qilmaydi, balki unga narsadek murojaat qilinadi. YA'ni bu o'rinda jonlantirilayotgan narsa murojaat qilayotgan kishigi nisbatan sust harakatda bo'ladi:

Oq qohozim, senga Erkin,

Ochdi pinhon ishqini.

Sen boru men bor, qalam bor,

O'rtada begona yo'q. /326-bet/

Apostrofa ham she'riy nutq ko'p qo'llanadi va badiiy ifodalilikni, ekspressivlikni oshiradi. Quyidagi misralarda dorilfununga jonli inson singari murojlat qiladi:

Bolangman, bor hali o'zingga hamdam,

SHo'xlik, erkaligim, andak jununim.

Kim bo'lsam, ne bo'lsam va qanday bo'lsam,

Sen meni tergab tur, dorilfununim. /218-bet/

Erkin Vohidovning “Ona tilim o’lmaydi” she’rida Navoiy, Pushkin, Dante, Xayyom va boshqalar qayta jonlantiriladi. She’rning ekspressivligi ortadi. Apostrofaning go’zal namunasi yaratiladi:

Notiq dedi: Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo’qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda
“Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qaerdan!”
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabirdan.
Kim darg’azab, kim hayron,
CHiqib keldilar qator.
Dante, SHiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor. /152-bet/

Jonlantirish. Jonlantirish jonsiz narsalarni inson kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so’zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirish deyiladi. Jonlantirishga she’riy nutqda ko’p murojaat qilinadi:

... Lekin sharqda mash’al charog’on yurtim,
Olamda tengi yo’q, o’lkada mumtoz.
Bunda do’stlik kuyin aytur har chechak,
Bunda baxtni qilur har bulbul navo. /222-bet/

Jonlantirish ko’p tomonlari bilan allegoriya va Apostrofaga o’xshab ketadi. Chunki allegoriyada ham jonlantirish borgan o’xshaydi. Ammo jonlantirish, allegoriya va apostrofa o’rtasida muhim farqlar mavjud. Masalan, allegoriyada hayvonlar – jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ulardek gapiradi. O’quvchi esa o’z e’tiborini shu hayvonlar harakati orqali tasvirlanayotgan insoniy obrazlarga (kishilarga) qaratadi. Bunda odamlarning qiliqlari, xususiyatlari hayvonlarga ko’chiriladi, ammo shu hayvon – jonivorlar harakati, holati orqali o’quvchi odamlarni tushunadi.

Jonlantrishda xususiyat, belgi jonsiz narsalarga ko'chiriladi, lekin ular orali odamlar tushunilmaydi, unda obrazlar tizimi bir qator bo'ladi:

Rahmi kelib bulutning
Yig'lab to'kar yoshini
Qushlar qochar, majnuntol
Ko'taradi boshini.
Bulutning orasidan
Quyosh kulib qaraydi.
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi. /42-bet/

Sinekdoxa. Sinekdoxa grekcha bo'lib, majozning bir turi sanaladi. Unda bir butun narsa, hodisa va inson haqida fikr yuritiladi, boshqacha qilib aytganda, butun o'rnida qism yoki qims o'rnida butunning qo'llanishidi.

O'zbek tilida aksariyat holatda birlik ko'plik o'rnida yoki qism butun o'rnida keladi.

Erkin Vohidovning "O'zbekim" qasidasi bir kishiga emas, balki butun o'zbek xalqiga, o'zbeklarga qaratilgandir:

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon o'zbekim.
Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim. /124-bet/

YUqoridagi til birliklari vositasida ekspressiv-emotsionallaik ifodalash sermahsul hisoblanadi. Nutqning ta'sirchanligini jozibadorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Badiiy asar tilining badiiylig, obrazlilik, ta'sirchanlik ko'lami janr xususiyatlariga ko'ra, bir xil emas. Bu vositalar nisbatan pozziya tili o'ziga xos til hisoblanadi.

She'riy ta'sirchanlik, jozibadorlikni uyushtirishda, ifoda usulini o'ziga xosligini ta'minlashda, badiiy tashbehlar bilan bir qatorda so'zni, ayniqsa, poetik so'zning muhim o'rni mavjudligi aniq. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, nutq mohichtidan kelib chiqib tanlab, saralab, ishlatilgan so'zning poetik fikrni haqiqiy yolqinlanishiga olib keladi.

Pozziya tili an'anaviylikka moyil til. SHuning uchun she'riyatda uchraydigan ko'pgina so'zlar adabiy til uchun eskirgan hisoblanib, aksariyat o'rinlarda poetik obrazlilikni ta'minlaydi, uslubiy vazifa bajaradi. Bunday so'zlarni B. Umrqulov "Poetik nutq leksikasi" monografiyasida an'anaviy poetizmlar¹ deb ataydi. Bunday nomlanishiga quyidagicha sabab ko'rsatadi: "An'anaviy poetizm terminini biz she'riyat tiliga nisbatangina ishlatamiz. CHunki bunday so'zlarni o'zbek she'riyatining hamma davrlarida ishlatilganligi ularni arxaik so'zlar deyishga moniylik qiladi".

Pozziya an'anaviylikka asoslanishi sababli, bu janrda an'anaviy so'zlar (adabiy til nuqtasi nazaridan arxaik) ancha faol qo'llanadi. N. N. Ivanova pozziya tilining shu xususiyatini adabiy til bilan solishtirib, adabiy til uchun arxaik hisoblangan ko'pgina leksik vositalar poetik nutqda stilistik vazifa bajarishini ta'kidlab o'tadi². SHu xususiyatiga ko'ra E. Kurilovich pozziya tilini arxaiklikka moyil til deb hisoblaydi³.

Hozirga o'zbek pozziyasida stilistik bo'yoqdorlikni she'riy texnika mosligini ta'minlash maqsadida an'anaviy ancha faol qo'llanilmoqda. SHu jihatdan qaraganda, an'anaviy so'zlarning poetik nutq jarayonidagi stilistik funktsiyasi chegaralanmagan. Masalan:

Bordek yiroq turkumlararo

O'zi kabi oqil bir xilqat,

¹ Б. Умиркулов Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент. 1990-й. 18-бет

² Б. Умиркулов. Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент. 1990-й. 18-бет

³ См: Языковые процессы современной русский художественный литературы. Поэзия. М. 1974 г с:8.

Inson ko'ka boqar doimo
Tintuv qilar osmonni faqat.

Xilqat so'zi bu o'rinda qofiyadoshlikni ta'minlash maqsadadida qo'llanilgan. Bu so'zning zamonaviy varianti yaratilishi ushbu o'rinda bu vazifani bajarmaganidek ritmik kompozitsiyani ham buzadi.

Hozirgi o'zbek poeziyasida faol qo'llanilib, pozziya tilining tantanavorligi, ko'tarinkiligini ta'minlovchi abr (bulut), anduh (g'am), anbar (xushbūy), ag'yor (begona), bahr (dengiz), boda (may), gardun (osmon), dudog' (lab), mahvash (oyga o'xshash), uzor (yuz), faryod (nola), shams (quyosh), chechak (gul), g'orat (talon-taroj) va boshqa an'anaviy so'zlar poetik nutqning xususiyatlarini ro'yobga chiqishiga ko'maklashuvchi leksik vositalardir. Masalan:

Sevgi sahrosida qolmish
Necha majnundan g'ubor,
Nega Farhod gardi yotgay
Bistunning tog'ida. /64-bet/

Bu o'rinda shoir g'ubor, gard kabi an'anaviy so'zlarni qo'llagan va misralarning jozibadorligiga erishgan.

Ma'lumki, tildagi barcha so'zlarning ma'no ifodalash xususiyati, ifodadorligi, nutqiy emotsional va ekspressivlik ko'lami bir xil emas. Odatda ma'no ottenkalari, ba'zi bir ma'noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so'zlarda ham turlicha bo'ladi. Bu hol ayniqsa she'riy nutqda yaqqol seziladi. She'riy nutqning xususiyatlari: musiqiylik, jozibadorlikni ta'minlashda so'zlardagi ma'no nozikliklari muhim ahamiyatga ega. CHunonchi, ushbu misralarda yanog' so'zi bilan "go'zallik" tushunchasining yuqori darajasi ham ifodalangan:

Gulgun yanog'ing uzra
Bir tomchi yosh ko'rarman,
Kel, birga dardlashaylik
Uy-uyda yig'laguncha. /66-bet/

Bir qator an'anaviy so'zlar majoziy ma'no ifodalash xususiyatiga ham ega. Ammo bu xildagi so'zlarning vazifasi majoziy ma'no ifodalanishi chegaralanib qolmagan. Masalan:

Siz mohi tobonsiz, malikasiz, pari,
Eng ulkan dahriylar topingan sanam. /32-bet/

Poetik nutq uchun uslubiy va normativdir. Chunki shoir xuddi shu birikmalar orqali fikrning emotsional ta'sirchanligini kuchaytirgan, estetik samaradorligini oshirgan.

Ushbu parchadagi "Osmon ko'ksim kabi keng" misrasi ham ifodadorlik ko'lamini bilan xarakterlanadi. Osmonning kengligiga ko'ksi emas, balki ko'ksining kengligiga osmon qiyos etilgan. Aslida, kenglik osmonga xos xususiyat. She'riy nutq so'zni ana shu mantiqiy asosdan kelib chiqib ishlatishga monelik qiladi.

Odamga xos bo'lgan xususiyatlarni narsa, predmetlarga ko'chirish orqali poetik fikr ifodalashda predmetlarni bir-biriga qiyoslash tufayli ta'sirchanlik, badiiylilik yanada kuchayadi:

Ona tuproq esa kuz tashvishida
Yuksak xirmonlarga siynasi yuklik
Uning sokingina tin olishida
Bordir onalarga xos bir buyuklik.

Bu o'rinda ham insonga xos bo'lgan xususiyatlar tashvish, tin olish jonsiz predmetga ko'chirilgan. Natijada fikrning emotsional obrazlilikini kuchaytirilgan. Kuzda etishtirilgan hosillar yuksak xirmonlarda uyulgandagina, tuproq tin oladi. Ana shu holatning qiyoslanishi natijasida fikrga poetik bo'yoq berilgan. Binobarin, poetik nutqda joli predmetlarga xos xususiyatlarni jonsiz predmetlarga ko'chirish vositasida fikr ifodalash ham so'zlarning shu nutq jarayonida poetiklashishni ta'minlaydi. Bunday hollarda matnda so'z faqat ma'no ifodalovchi vosita vazifasini bajarib qolmaydi, matnning yoki matn bir qismning emotsional qimmatini oshirish vositasi vazifasini ham bajaradi. Masalan:

Hayrat ichra yonib yarqirab
Asta mendan so'rar yulduzlar

Bu kabi ifodalar poetik nutqning emotsional qimmatini oshiruvchi uslubiy ifodalardir.

Obrazli ifodalar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bunday ifodalar ijodkorning katta mehnati va o'tkir tafakkurining samarasi sifatida vujudga keladi. Ba'zi bir fikrni bayon etishda qator-qator obrazli ifodalarning qo'llanilgani kuzatiladi:

Zuhra sukut og'ushida

Tebranar asta.

Azim kurra to'lqinlanib

Charx urar pastda.

Alvon-alvon shu'lalardan

YAsab guldasta

U bahodir o'g'loniga

Tilaydi zafar.

Yuqoridagi matndagi “Zuhraning sukut og'ushida asta tebranishi”, “YOrning to'lqinlanib, pastda charx urishi”, “alvon-alvon shu'lalardan guldasta yasashi” kabi qator-qator obrazli ifodalar shoir bayon etmoqchi bo'lgan fikrning yo'lqinlanishini uyushtirganki, fikrning badiiy ta'sirchanligini obrazli ifodalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

So'z qo'llashdagi individuallik ijodkorning o'ziga xos uslubini belgilovchi omillardan hisoblanadi. YAngi so'z qo'llashda ijodkor ma'lum maqsadlarni ko'zda tutgan bo'ladi. Biror ijodkor tomonidan qo'llangan so'z boshqa ijodkor tomonidan takror qo'llanilmasa, shu kontekstga xos qolaveradi. Bunday so'zlar individual okkozionalizmlar deyiladi.

III. Bob

3.1. Okkozional so'zlar orqali voqea-hodisani orginal ifodalash

Okkozional so'zlar nutqiy ehtiyoj tufayli yaratilib, voqea-hodisani orginal ifodalash imkoniyatini beradi. SHu jihatdan ham okkozional so'zlar poetik nutqning xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim leksik birliklar sirasiga kiradi. Okkozional so'zlar ijodiy jarayonda favqulodda yaratiladi. Masalan:

Olam keng,
Ellar ko'p,
YUrtlar beiumor
Har yurt o'z ahliga go'zal va ajib,
Ne baxt,
Quyoshiston tarafli diyor

Nurli peshonamga bo'libdi nasib. /15-bet/

Ushbu misralarda quyoshiston so'zi yordamida shoir yurtimizning serquyoshliligini ifodalagan, lekin shoir nazdida bu ifoda O'zbekistonning go'zalligini tasvirlab bera olmagandek tuyuladi. SHu bois O'zbekiston tasvirini shunday davom ettiradi:

Men ilk bor dunyoning xaritasida
Oltin uzuk yang'lig' ko'zimni ko'rdim.
Zaminning do'ppidek bir pallasida
Hiloliy nusxa gul –
Bu mening yurtim! /15-bet/

SHoir O'zbekistonni gulga qiyos qiladi. U shunchaki oddiy gul emas, hiloliy nusxa gul. "Hilol" so'zi "o'n besh kunlik oy ma'nosida qo'llangan, shu so'z tarkibidagi –iy qo'shimchasi o'xshatish hosil qilgan. Oyning eng go'zal davriga O'zbekistonning qiyoslanishi natijasida fikriy obrazlilik kuchaytirilgan. Xuddi shu usulda okkozional so'z yasalgan, hiloliy okkozionalizm ifoda xususiyatiga ko'ra ushbu she'riy parchaning umumiy ruhiga mos topib ishlatilgan. SHoir tomonidan qo'llanilgan okkozionalizmlar poetik nutqqa mosligi, orginalligi bilan ajralib turadi:

Har ko'cha obod, hamon men

Turfa vyron ko'chamen.

YOzda changistonu qishda

Balchig'iston ko'chamen.

/20-bet/

SHoir bu o'rinda "chang", "balchiq" so'zlariga –iston qo'shimchasini qo'shish orqali okkozionalizmlar hosil qilgan. Bu so'zlar yordamida ko'chaning changga botganligi, balchiqdan, loydan iboratligini kuchaytirib tasvirlagan. Ushbu so'zlar salbiy bo'yoqdorlikka ega so'zlardir.

Ayrim okkozional so'zlar garchand, poetik nutqning obrazlilikini kuchaytirib, poetik serbo'yoqligini ta'minlasa-da, poetik matnlarda uchraydigan ko'pgina okkozional so'zlarning asosan she'riy nutqning xususiyatlaridan kelib chiqib, nutq jarayoniga mos ma'no ifodalash uchun qo'llanilgani kuzatiladi.

Demak, okkozional so'zlar nutqiy ehtiyoj natijasida yuzaga keladi. Bunday leksik vositalarning poetik nutqida ko'plab uchrashi shu nutqning xususiyatlari natijasidir. She'riy matnlarda uchraydigan okkozional so'zlar asosan, yasovchi affikslar hamda so'zlarni qo'shish bilan morfologik va sintaktik usulda hosil bo'lgan. Okkozional so'zlar nutq jarayonida muhim uslubiy vazifa bajarganidek, tilning leksik guruhini ham boyitib boradi.

3.2. Poetik nutqda obrazlilik

Poetik nutqda obrazlilik birinchi rejaga qo'yiladi. Chunki poetik nutq-mohiyatan estetik nutq. Bu nutq fikrlarning obrazli, ta'sirchan ifodalanishi bilan farqlanadi. Poetik nutqda fikrning obrazlilikini ta'minlovchi vositalardan biri obrazli ifodalar va so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishidir. Badiiy nutqni, ayniqsa, she'riy nutqni obrazli ifodalarsiz, ko'chma ma'noli so'zlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Poetik nutqni boshqa nutq turlaridan farqlab turuvchi omillaridan biri ham unda so'zlar qanday qo'llanilgan bo'lsa, shunday so'zning o'z ma'nosi tushunilmasligidir. Agar she'riy nutqda uchraydigan so'zlar asl ma'nosida qabul qilinsa, qay darajada mantiqsizlik kelib chiqishini tasavvur qilgan holda she'riy matnlar leksikasiga nazar soladigan bo'lsak, obrazli ifodalar va ko'chma ma'noli so'zlarning nutq jarayoniga mislsiz ayon bo'ladi. Masalan:

Bir tomchi quyosh o'ynar
Naqsh olma yonog'ida,
Osmon ko'ksim kabi keng,
Ko'nglim kabi beg'ubor.

Keltirilgan bu misollar emotsional bo'yoqdorligi, obrazlilik bilan kishi diqqatini tormay qolmaydi. Fikrning shu darajada jilodorligini, serbo'yoligini poetik ifodalar kuchaytirgan. Bu parchadagi bir tomchi quyosh, olma yonog'i birikmalari odatiy nutq uchun normativ hodisalar hisoblanmaydi.

Ushbu misralarda mohi tobon, malak, pari so'zlari go'zallik tushunchasini ifodalagan. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy so'zlar she'riyat tilida ma'lum uslubiy vazifa bajarishga moyilligi uchun qo'llanib kelmoqda. Demak, ag'anaviy so'zlar she'riy nutqda faqat leksik birlik sifatida emas, balki stilistik element sifatida ham muhim.

SHuningdek, ayrim shaxslar o'z nutqida ruscha yoki tilga oid so'zlarni o'rinsiz ishlatadilar. SHoirlarimiz tildagi mana shu salbiy hodisadan ijobiy maqsadda – personaj nutqini individuallashtirish hamda engil kulgu, shu yo'l yo'l ekspressivlik hosil qilish niyatida foydalanadilar.

Masalan:

Goh cho'kar, ko'rinar,
Dod solar “Qutqaringiz”,
“Spasite”, Edast bidneh”,
“O moy frend, SOS pliz”. /246-bet/

Qisqartirma formalar. Qisqartirma formalar yangi so'z yasalishining bir turi sifatida vujudga kelga, adabiy til va bidiiy adabiyotning boshqa turlarida deyarli ishlatilmaydi. Bu formalar o'zbek pozziyasi uchun an'anaviy, hozirgi pozziya tili uchun ham seriste'moldir. Qisqartmalar she'riy mazmunni saqlagan holda, asar tilining ravonligini, musiqiyligini, she'riy o'lchovning aniqligi, she'riy texnika mosligini ta'minlaydi.

SHunga ko'ra bu formalar bajaradigan vazifasiga, tabaqalangan janr va uslubiga ko'ra, pozziya tili uchun normativdir. CHunki “adabiy tilning normativ vositalari,

imkoniyatlari shu tilda qo'llanuvchi aniq uslubiy formalariga ko'ra tabaqalangan bo'ladi"¹. Poetik nutq ixchamlikka asoslanadi.

Pozziyada uchraydigan qisqartma so'zlar xususiyaitga, qisqarish yo'llariga ko'ra har xil:

1. So'z tarkibidagi bitta unli fonema tushib qoladi: gar (agar), so'r (so'ra), so'rma (so'rama), so'rsa (so'rasa) kabi. Bunday qisqartma formalar ixchamlikka erishish misralardagi hijolar sonini tenglashtirish, so'z takroridan qochish, ohangdorlikni uyushtirish maqsadida ishlatiladi. Masalan:

Sochu qadding yodin Erkin,
Gar unutsa bir nafas.
O'sha sunbul sirtmoq o'lsin,
Mayli bo'lsin dor sarf. /71-bet/

YOki:

So'rma mendan, kim diloru,
Do'stmi yo jonona deb.
Do'st mening ko'nglimdadair,
Jonimdadair jonona ham. /86-bet/

2. Qisqartma formalarda bo'g'inni tashkil qiluvchi tovushlar tushib qoladi: abad (abadiy), albat (albatta), bo'b, bo'p (bo'lib), lek (lekin), qay (qaysi) va boshqalar.

Bunday qisvrtmalar ham, asosan ixchamlik va poetik musiqiylikni ta'minlaydi.
Masalan:

Man xayoln she'rga soldim,
O'y parast bo'lma va lek,
Besamar bo'lsa aening
Bir kun xarob aylar xayol. /82-bet/

YOki:

Meni bir yon boshlasa aqlim

¹ Бегматов Э. А. Нутқ маданияти ва адабий норма. Тошкент. 1973-й. 6-бет

Boshqa yonga etaklar yurak.

Bilolmayman, qay biri haqli,

Qay biriga ishonmoq kerak? /22-bet/

3. ... SHe'riy nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligini kuchaytirish maqsadida so'zlar qisqartiriladi. Bu xildagi qisqartmalar faqat unli fonemalarni emas, undosh fonemalarning qisarishi natijasida ham yuzaga kelgan. Masalan: davronima (davronimga), jonima (jonimga), o'zima (o'zimga) va boshqalar.

Sen ko'ngil mulkini taroj,

Qalb uyin vayron etib.

Pora qilding u tanimni,

Jonima rahim aylading. /71-bet/

Bu forma eski o'zbek tilida mavjud bo'lib o'n beshinchi asr va undan keyin asosan she'riy asarlarda qo'llanilgan¹. Hozir asosan, folklor asaralarida², pozziya tilida ham uchraydi.

Aksincha, she'riy nutq jozibadorligini ta'minlash, jarayonida ayrim undosh orttirib qo'llanilgan hollar ham uchraydi: ichinda (ichida), so'zinda (so'zida), o'zinda (o'zida), bo'larsan (bo'lasan), ketarsan (ketasan), (ketadir) ketadi va boshqalar. Bunday formalarda n va r tovushi orttirilgan.

Nutq talabiga ko'ra –r tovushi orttirilib qo'llanilgan so'zlar nutqiy ohangdorlik va jozibadorlikni kuchaytirgan. Masalan:

Fazolarning qay burchagida

Fikri bilan etadir inson.

Ammo ne bor o'z yuragiga

Bilmay o'tib ketadir inson.

O'zbek pozziyasining qisqartma formalari o'zbek tilidagi ekvivalentining ma'no ottenkasi mavjud bo'lmagan variantidir. Lekin bu formalar nutq jarayonida

¹ Абдурахманов Т., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент. 1973-й. 46-бет.

² Мирзаев М., Усманов С. Ўзбек тили. Тошкент. 1978-й. 93-бет.

ekvivalentidan farqli o'laroq, emotsional-ekspressivlikni ta'minlaydi. SHunga ko'ra, tildagi ekvivalentidan:

- a) formasi;
- b) emotsional-ekspressivligi;
- v) poetik ixchamligi;
- g) boshqa nutq uslublari uchun kamligi bilan farqlanadi.

O'zbek pozziyasi tilda analitik usul bilan qisqartirilgan so'z formalari ham ko'plab uchraydi. Analitik forma mustaqil va yordamchi so'zlarning, ba'zan fe'l va to'liqsiz fe'llarning birikuvidan hosil bo'lgan.

O'zbek pozziyasida okkozionalizmlar analitik usulda qisqarib, qisqartma forma hosil qilgan holda qo'llaniladigan quyidagi so'zlar uchraydi:

1. Bilan ko'makchisi –la affiksali formada o'zidan oldingi so'zga qisqarib qo'shiladi:

Kun bo'yi u fazolarda
Aylabdi parvoz.
Ko'z nuri –la bu chamanga
Beribdi parvoz. /132-bet/

2. Uchun ko'makchisi –chun formasida o'zidan oldinga qisqarib qo'shiladi:

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolaning inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan. /150-bet/

3. Nima so'roq olmoshi uchun ko'makchisi bilan birgalikda qisqarib nechun formasi hosil bo'lgan. Bu forma ham hozirgi she'riyatda faol qo'llanilgani kuzatiladi:

Gar shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
SHunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo niaga kerak? /50-bet/

She'riyatda qo'llaniladigan qisqartma formalar ham poetik nutqning xususiyatlarini namoyon qiluvchi leksik birliklar hisoblanadi. Qisqartma formalar, asosan, she'riy texnika mosligini ta'minlash vazifasini bajargan. SHu jarayonda ohangdorlikni, nutqning jozibadorligini ham sezilarli darajada kuchaytirgan. SHu bosdan ham bu formalar o'zbek she'riyatining lug'at boyligi hisoblanadi. CHunki bunday formalar poetik nutq madaniyati va poetik nutq formasiga mos bo'lib, ko'pgina nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltiradiki, ko'pincha bu formalarning o'rnini nutq jarayonida so'zning to'liq formasi egallay olmaydi.

3.3.Frazeologizmlarning tilda ekspressivlik-emotsionallik ifodalashi

Frazeologiya barqaror birikma sifatida semantik xususiyati va grammatik qurilishi jihatidan o'zbek tilida ancha durust ishlangan sohadir. Tilning har qanday vositasi maxsus biror stilistik maqsadda ishlatilsa, qandaydir ekspressivlik-emotsionallik kabi ottenkalarni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda nutqda ekspressivlik-emotsionallikka erishish maqsadida tilning u yoki bu vositasini ataylab ko'chma ma'noda ishlatiladi. Frazeologik birikmalar ham yaxlitligicha yoki komponentlaridan birining ko'chma ma'nosi asosiga qurilgan bo'ladi. Frazeologizmlar tilda ekspressivlik ifodalashi jihatidan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Frazeologizmlar nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalarning ajralmas birligidan iborat bo'lgan maxsus nutqiy figuralardir. Frazeologizmlarning ko'pchiligi nutqda ma'lum stilistik maqsadlar, ayniqsa, ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Ularda bunday xususiyat kuchli va rang-barangdir.

Masalan:

Barcha jim qoldi bir zum,

Barcha labda tabassum,

Ko'kka etgan boshimiz! /25-bet/

Bu o'rinda "Ko'kka etgan boshimiz" iborasi ishlatilgan. Ibora faqat xursand bo'lmoq degan ma'nonigina bildirmaydi, shu bilan birga o'ta, juda xursand bo'lmoq

degan ma'noni kuchaytiriadi, voqeaning yuzaga chiqishi holati yuksak darajada sodir bo'lganligi kabi ma'nolar ifodalanadi.

Ekspressivlik xususiyatining doimiyliigi hamda bunday ma'nolarning kuchli va rang-barangligi jihatidan ayrim frazeologizmlar boshqalardan ajralib turadi. Frazeologizmlarning bu xususiyati shu bilan xarakterlanadiki, ular ifodalagan ma'no komponentlarining ma'nolaridan kelib chiqmaydi, komponentlari orasidagi grammatik bog'lanish "o'lgan" bo'ladi¹.

Binobarin, ular nominativ va qo'shimcha ma'nolarning ajralmas birligidan iboratdir. SHu tufayli bu tip frazeologizmlardan anglashilgan ma'no ko'pqirrali va ayni paytda ta'sirchandır.

Masalaga boshqacha tomondan yondoshsak, ularni mana bunday ta'riflash mumkin: frazeologizmlar voqea, hodisa, belgilarning inson ongiga kuchli ta'sir qilishi, shu kuchli ta'sir natijasini nutqda to'laligicha, borligicha ifodalash-umuman fikrning ta'sirchanligiga erishish maqsadi zaminida yaratilgan til hodisadir. Masalan:

Ming xil taftishlardan, rost aytsam, to'ydim,

Jonga tegib bo'ldi qizil qalaming. /185-bet/

SHunday qilib, frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati doimiydir. Agar ekspressivlik ifodalashning boshqa usullarida qo'shimcha vositalar (kontekst, situatsiya, ohang kabi) talab qilinsa, frazeologik iboralar bunday vositalarsiz ham, ayniqsa, kontekstdan tashqarida ham ekspressivlik xususiyatini saqlay oladi. Ular nutq jarayonida tuzilmaydi, balki avvaldan tayyor material sifatida yaxlitligicha ishlatilaveradi:

Imonimdan ayirma,

Etkazgin muddaoga

Do'stu dushman oldida,

YOrug' qilgin yuzimni /324-bet/

Demak, frazeologizmlar ekspressivlik boy bo'lgan nutqiy figuralardan bo'lib, ular orqali ifodalanadigan ma'nolar ko'p qirrali va rang-barangdir.

¹ Турсунов У. , Мухторов Ж. , Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент-1965-й.

Umumiy xulosalar.

YUqorida aytilganlardan quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

1. Inson ongida paydo bo'lgan tushunchalar va sub'ektiv munosabatlar nutq orqali yuzaga chiqadi, voqe bo'ladi. So'zlovchining voqelikka bo'lgan bunday munosabatlari tilda turli modal formalar, emotsional, ekspressiv-stilistik vositalar yordamida reallashadi.
2. Ekspressivlik va emotsionallik nutqning ta'sirchanligi uchun xizmat qiladi. Nutqni yanada yorqinroq, ta'sirchanroq viladigan narsalarning hammasi ekspressiyadir.
3. Prozoik nutq ham, she'riy nutq ham bab-barobar emotsional nutq sanaladi. Lekin she'riy nutq tabiati emotsionallik yuqori darajada bo'lishini talab qiladi. SHe'riy asarlarda hissiylikni ta'minlovchi vositalar anchagina. SHe'ring ma'lum tartibda – barmoq yoki aruz vaznida yozilishi ham, unda ritm va qofiyaning bo'lishi ham asarning emotsionalligini ta'minlashga xizmat qiladi.
4. SHe'riy nutqda ham ekspressiv-emotsionallikni yuzaga keltiruvchi usul va vositalar mavjud. Ma'lumki, ekspressiv-emotsionallik fonetik hodisalar yoki so'z formalari orqali ifodalanishi mumkin. SHunga muvofiq, ekspressiv-emotsionallik quyidagi usullari bor:
 - a) fonetik usul;
 - b) morfologik usul;
 - v) leksik- frazeolik usul;
 - g) sintaktik usul.
5. Fonetik usul bilan ma'no kuchaytirishning uch xil ko'rinishi mavjud:
 - a) unlini kuchli talaffuz qilish usuli;
 - b) unlini cho'zish usuli;
 - v) unlini qavatlantirish usuli.

Bulardan unlini kuchli talaffuz qilish (zarb urg'usi) ma'no kuchaytirishning qolgan ikki usuliga nisbatan keng qo'llaniladi va belgining hamma vaqt kuchli darajasi ifodalanadi. Masalan:

Meva berdi etilib bu yil

Men bog'imga o'tqazgan nihol.

Mevalarki, cho'g'day qip-qizil,

Husni yoqut, shirinlikda bol. /16-bet/

6. Morfologik usulda esa maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funktsiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik ifodalanadi. Masalan, -jon offiksini qo'llash orqali xurmatlash, e'zozlash kabi ma'nolar ifodalanadi:

Olimlar zehnining charog'i bo'lgan

Munis ayajonlar,

Sizga tashakkur. /33-bet/

7. Yuqoridagi usullardan eng sermahsuli leksik-frazeologik usuldir. Leksik-frazeologik usul deganda ekspressiv-emotsionallikning lug'aviy birliklari, ya'ni so'z va frazeologizmlar bilan ifodalanishi tushuniladi.

So'zlarning son jihatidan ko'p bo'lishi bilan birga ularning har tomonlama va xilma-xil ma'noga ega bo'lishi, so'z sistemasining tobora kengroq tarmoq yoyishi va eng nozik ma'no ottenkalarini ifoda etishi, turli sinonimik so'z va boy stilistik xususiyatlar tilning boyligini bildiradi. O'zbek tili ham ana shunday boylikka ega tillardan hisoblanadi.

Troplar va boshqa shu kabi qabullar, stilistik, sinonimlar, ba'zi bir stilistik chegaralangan leksik qatlam va frazeologizmlar asosida ekspressivlik va emotsionallik hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. Ijtmoiy — siyosiy adabiyotlar.

- 1.I.A. Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yuq»_g Toshkent, «SHarq» nashriyoti. 1998 yil.
- 2.I.A. Karimov. «Barkamol avlod orzusi», «SHarq» nashriyoti, Toshkent. 1998 yil.
- 3.I.A. Karimov. «Istiqlol va ma'naviyat», O'zbekiston. Toshkent. 1998yil.
- 4.I.A. Karimov. «Buyuk maqsad yulidan olishmaylik», «SHarq», Toshkent. 1998 yil
- 5.I.A. Karimov. «Milliy istiqlol mafkurasi», Toshkent. 2000 yil.

II. Ilmiy —badiiy adabiyotlar, monografiya, qo'llanma va tadqiqotlar.

1. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent. O'zbekiston "Fan" nashriyoti-1983 y.
2. Balli SH. Frantsuzskaya stilistika M. 1961 g.
3. Begmatov E., Boboeva A., Asomiddinova M., Umirqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent-"Fan". 1988 y.
4. Brandes M. V. Stilistika netskogo yazыka. M. Vysshaya shkola. 1983 g.
5. Vetvinskaya T. Perechisleniya kak stilisticheskiy priyom (na materialy angl. Yazyka). Kiev 1979 g.
6. Vinogradov V. V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika. Izd.- An. M. 1963 g.
7. E. Vohidov. Kuy avjida uzilmasin tor. Toshkent . G'. G'ulom nomidagi nashriyot. 1991 y.
8. E. Vohidov. Muhabbatnoma. Toshkent . G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1986 y.
9. E. Vohidov. Iztirop. Toshkent . "O'zbekiston". 1992 y.
10. E. Vohidov. Dostonlar. Toshkent . G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1973 y.

11. Galkina –fedoruk E. M. Gorshkova K. V. Sovremenny russkiy yazyk. T. 1962 g.
12. Gvozdev A. N. Ocherk po stilistke russkogo yazyka. M. 1952 g.
13. Jirmunskiy V. M. Teoriya literatury.
14. Zagorskaya O. A. Esteticheskoy funtsii yazyka. Voronej. 1982 g.
15. Kvyatovskiy A. Poeticheskiy slovar. M. 1962 g.
16. Lapasov J. badiiy matn lisoniy tahlil. T –“O’qituvchi”. 1995 y.
17. Maamjonov A. Qo’shma gaplarda antiteza. “O’zbek tili va adabiyoti jurnali” 1980 y.
18. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. Farg’ona. 1996 y.
19. Mirzaev M., Usmonov S. , Rasulov I. O’zbek tiliyu T. 1970 y.
20. Rahmatullaev SH. Nutqimiz ko’rki. O’zb. Toshkent. “Fan” 1973 y.
21. Rubaylo L. T. Xudojestvennyye sredstva yazyka. Moskva. 1961 g.
22. Rustamov A. So’z xususida so’z. Toshkent. “YOsh gvardiya”. 1987 y.
23. Tursunov U. Muhtorov. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkentyu 1992 y.
24. Umirqulov B. Poetik nutq leksikasi. Toshkent. O’z. “Fan”. 1992 y.
25. YUsupov K. O’zbek adabiy tilining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari. Toshkent. Fan. Nashr. 1986 y.
26. O’zbek sovet ensiklopediyasi. Toshkent 1976 y.
27. O’zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. O’zbeksiton Respublikasi Oliy va O’rta maxsus ta’lim vazirligi. Z. M. Bobur nomidagi And. Du. 1996 y
28. O’zbek til nutq madaniyatiga oid masalalar. O’z. Fan. 1990 y.
29. O’zbek tili stilistikasi. Toshkent. 1983 y.
30. Qo’ng’urov R. Sub’ektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. Toshkent. O’z. Fan. 1980 y.
31. Rahmatullaev SH. O’zbek tilining frazeologik lug’ati. Qomuslar bosh tahririyati. Toshkent. 1982 y.
32. SHoabdurahmonov SH. va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Toshkent. 1980 y.

Internetdan foydalanilgan adabiyotlar

1. WWW. Pedagog.uz.
2. WWW. Tdpu.uz.
3. WWW. uznature.uz.
- 4 .WWW. yuriollit.uz.
- 5 .WWW. Ziyonet.uz.
6. WWW. books.uz.
7. WWW. allpravo.uz.